



#### HARBIY SHAHARCHADAGI MUROSASIZ BAHSLAR

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa va Sportni rivojlantirish vazirliklari hamda Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida milliy kurash va tosh ko'tarish sport turlari bo'yicha "Men g'olib!" shiori ostida "Mudofaa vaziri kubogi" uchun bellashuvlarning mahalla bosqichlari ko'tarinki ruhda o'tdi.

7-sahifa▶▶

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan ● 2022-yil 10-iyun, №23 (2982)



XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

# VATANPARVAR

www.mv-vatanparvar.uz

VIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



# MUHAMMID JANGOVAR RUHIYAT

Qadimdan buyuk sarkardalarning jang olib borish nazariyasi va amaliyoti, jangchilarni ruhlantiruvchi notiqlik san'ati erishilgan g'alabada muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan mana shu xususiyatlar asrlar davomida janglardagi muvaffaqiyatni ta'minlagan.

## MAKTAB OSTONASIDAGI VATANPARVARLIK

O'quvchilarning yozgi ta'til kunlari boshlanganiga uncha ko'p vaqt bo'lmadi. Ammo shu muddat aksariyat ota-onalar farzandlarining bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash muammosini jiddiy o'ylab ko'rishiga yetarli bo'ldi. Har kim o'zicha, qo'lidan kelganicha bir ishning boshidan tutdi.

11-sahifa▶▶

## "O'RGIMCHAK TO'RI"

"Sizlarga ham tavsiyam hech bo'lmasa, bir kunni internetsiz o'tkazib ko'ring! Hayot ko'zingizga yanada jozibali, qiziqarli ko'rinish boshlaydi!"



18-sahifa▶▶



## JANGOVAR TANKLAR TARIXIDAN

20-sahifa▶▶

@ vatanparvar-bt@uamail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaa\_press

facebook.com/UzArmiya

instagram.com/uzbekistanarmy

www.youtube.com/c/UzArmiya

Tahririyat haqida ma'lumot



4-5-sahifalar▶▶

# Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҚАРОРИ

## ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ҚАТНАШЧИЛАРИ ВА ФАХРИЙЛАРИНИНГ МОДДИЙ ТАЪМИНОТИНИ ЯХШИЛАШ ҲАМДА ЁЛҒИЗ КЕКСАЛАР ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ТИЗИМИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА

Иккинчи жаҳон уруши фахрийлари, фашистлар концлагерларининг вояга етмаган собиқ маҳбуслари ва Ленинград шаҳри қамал қилинган даврда ишлаган фуқаролар, кексалар, ногиронлиги бўлган шахсларни манзилли ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтириш, уларга кўрсатилаётган ижтимоий хизматлар сифатини янада ошириш ҳамда ушбу фуқароларни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг шаффоф ва самарали механизмларини жорий этиш мақсадида:

1. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

1941–1945 йиллардаги уруш фахрийлари ва фашистлар концлагерларининг вояга етмаган собиқ маҳбуслари ва Ленинград шаҳри қамал қилинган даврда ишлаган фуқароларга, шунингдек, ўзгалар парваришига муҳтож бўлган ёлғиз кексалар ва ногиронлиги бўлган шахсларга **бепул етказиб бериладиган озиқ-овқат маҳсулотлари ҳамда гигиена товарлари ўрнига ҳар ойда базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдориди** кўшимча тўлов (*кейинги ўринларда – кўшимча тўлов*) тўлаб борилади;

1941–1945 йиллардаги уруш фахрийлари ва фашистлар концлагерларининг вояга етмаган собиқ маҳбуслари ва Ленинград шаҳри қамал қилинган даврда ишлаган фуқароларга **бепул етказиб бериладиган зарур кийим-кечак ва пойабзаллар ўрнига кийим-кечак хариди учун ҳар йили август**

**ойида базавий ҳисоблаш миқдорининг 15 баравари миқдориди тўланадиган компенсация** (*кейинги ўринларда – компенсация*) жорий этилади.

Бунда, кўшимча тўлов Тиббий-ижтимоий хизматларни ривожлантириш агентлиги томонидан пенсияларни ва нафақаларни тайинлашга масъул бўлган ташкилотга ўзгалар парваришига муҳтож бўлган ёлғиз кексалар ёки ногиронлиги бўлган шахслар тўғрисида тақдим этиладиган маълумотлар асосида амалга оширилади.

Белгилансинки, компенсация ва кўшимча тўловлар мазкур бандда келтирилган шахсларга, уларнинг **пенсиялари ва нафақалари тўланадиган тартибда тўланади**.

2. Кўшимча тўлов ва компенсацияларни молиялаштириш кўйидагилар:

а) Пенсия жамғармаси ҳисобида турган пенсия ва нафақа олувчиларга:

кўшимча тўловлар – Пенсия жамғармаси маблағлари;  
компенсациялар – Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети маблағлари;

б) Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ўзбекистон Республикаси Президенти давлат хавфсизлик хизмати, Олий суд, Конституциявий суд, Судьялар олий кенгаши, Бош прокуратура, Электрон технологияларни ривожлантириш маркази, Миллий гвардия ва Давлат божхона

қўмитаси томонидан тайинланган пенсия ва нафақаларни олувчиларга кўшимча тўловлар ва компенсациялар мазкур вазирлик ва идораларга ажратилган бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилсин.

3. Молия вазирлиги ушбу қарорда кўзда тутилган тадбирларни амалга ошириш учун зарур бўлган маблағлар 2022 йилда Давлат бюджети параметрларида 1941–1945 йиллардаги уруш фахрийлари ва фашистлар концлагерларининг вояга етмаган собиқ маҳбуслари ва Ленинград шаҳри қамал қилинган даврда ишлаган фуқароларга, шунингдек, ўзгалар парваришига муҳтож бўлган ёлғиз кексалар ва ногиронлиги бўлган шахсларга бепул етказиб бериладиган озиқ-овқат маҳсулотлари, гигиена товарлари ва кийим-кечаклар учун назарда тутилган маблағларнинг чекланган миқдорлари доирасида ажратилишини таъминласин.

4. Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги, Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси, Ёшлар ишлари агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари мазкур қарорнинг 1-бандида келтирилган имтиёзли тоифадаги шахсларга маҳаллий бюджет, «Саховат ва кўмак» жамғармаси, «Ёшлар дафтари»га киритилган ёшларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ва «Аёллар

дафтари» рўйхатига киритилган хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари ҳисобидан **кўшимча равишда моддий кўмак ва ижтимоий ёрдам кўрсатиб боришни таъминласин**.

5. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги ушбу қарорнинг мақсад ва вазифалари босма ва электрон ахборот воситаларида, шу жумладан, Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали аҳоли ўртасида мунтазам, тизимли ва кенг қўламда ёритиб борилишини таъминласин.

6. Молия вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан бирга-лиқда икки ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва кўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

7. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб молия вазири Т.А. Ишметов белгилансин.

Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

**Тошкент шаҳри,  
2022 йил 8 июнь  
(ЎЗА)**

#

## ЎЗБЕКИСТОН ПРЕЗИДЕНТИ ВА БМТ БОШ КОТИБИНИНГ БИРИНЧИ ЎРИНБОСАРИ МАМЛАКАТИМИЗДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШINI МУҲОКАМА ҚИЛДИЛАР

8 ИЮНЬ КУНИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ МАМЛАКАТИМИЗДА  
ТАШРИФ БИЛАН БЎЛИБ ТУРГАН БИРЛАШГАН МИЛЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ БОШ КОТИБИНИНГ  
БИРИНЧИ ЎРИНБОСАРИ АМИНА МУҲАММАД БИЛАН УЧРАШУВ ЎТКАЗДИ.

Жаҳоннинг бош халқаро ташкилоти делегацияси таркибиди учрашувда БМТ Европа иқтисодий комиссияси раҳбари Ольга Алгаерова ва БМТ Тараққиёт дастурининг Ўзбекистондаги доимий координатори Роли Астхана ҳам иштирок этди.

Мамлакатимизда Барқарор ривожланиш мақсадларини амалга ошириш доирасида БМТнинг институт ва марказлари билан кўп қиррали ва самарали ҳамкорликни янада кенгайтиришнинг долзарб масалалари кўриб чиқилди.

Делегация раҳбари Ўзбекистон етакчисига ташкилот Бош котиби Антониу Гутерришнинг самимий саломи ва энг эзгу тилаklarини етказди. Таъкидланганидек, БМТ давлатимиз томонидан амалга оширилаётган очиқ ва прагматик сиёсатни, шунингдек, Янги Ўзбекистонни барпо этишга қаратилган ҳамда 2030 йилга қадар барқарор тараққиёт соҳасидаги глобал кун тартибининг асосий вазифаларига

тўлиқ мос бўлган туб ислохотлар дастурини юксак баҳолайди.

Бугунги кунда Ўзбекистон БМТнинг барча тузилмалари билан фаол ҳамкорлик қилмоқда – биргалиқда турли йўналишларда 200 дан зиёд лойиҳалар амалга оширилмоқда. Мамлакатимиз БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгаши аъзосидир.

Кейинги йилларда Ўзбекистон ташаббуси билан ташкилот Бош Ассамблеясининг қатор муҳим махсус резолюциялари қабул қилинди. Бундан ташқари, экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилинган Оролбўйи минтақаси бўйича БМТ Траст фонди ташкил этилди.

БМТ Тараққиёт дастури, Европа иқтисодий комиссияси, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, ЮНИДО, ФАО, глобал ташкилотнинг бошқа тузилмалари билан самарали амалий ҳамкорлик кенгаймоқда.

Учрашувда фаол мулоқот ва алмашувларни давом эттириш, Ўз-

бекистонда Барқарор ривожланишнинг, энг аввало, аҳоли турмуш сифатини яхшилаш ва фаровонлигини юксалтиришга қаратилган асосий мақсадлари ижросини таъминлаш учун ҳамкорликни мустаҳкамлаш ва кўшма тадбирларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилди.

Камбағалликни қисқартириш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, соғлиқни сақлаш ва таълим соҳаларида кенг қўламли ислохотларни илгари суриш, гендер тенглик бўйича миллий стратегияни амалга ошириш, «яшил» энергетикани жадал ривожлантириш, инновациялар ва рақамли технологияларни жорий қилиш, инфратузилмани модернизация қилиш ва бошқа масалалар яна бир бор шерикликнинг устувор соҳалари сифатида қайд этилди.

Халқаро сиёсат масалалари ва минтақавий муаммолар юзасидан ҳам фикр алмашилди.

БМТ Бош котибининг биринчи ўринбосари Амина Муҳаммад

Марказий Осиё мамлакатлари минтақда дўстлик, яхши кўшничлик, ишонч ва шериклик муносабатларини мустаҳкамлашда улкан муваффақиятларга эришганини катта мамнуният билан қайд этди.

Ўзбекистоннинг Афғонистонда бардавом тинчликни таъминлашга ҳамда ушбу мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тикланишига, шу жумладан, йирик транспорт ва энергетика лойиҳаларини илгари суриш орқали кўмаклашиш борасидаги саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлади.

Музокаралар якунида Ўзбекистон Республикасининг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти институт ва тузилмалари билан кенг қўламли ҳамкорлигини қабул қилинган «йўл харита»лари асосида янада ривожлантириш бўйича кўшма чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириш юзасидан келишувга эришилди.

ЎЗА

# Xalqaro hamkorlik

Ўзбекистон ва Покистон Мудофаа вазирликлари ўртасидаги доимий дўстлик алоқаларини янада мустаҳкамлаш ҳамда ўзаро ҳамкорлик режасига мувофиқ, Покистон Қуролли Кучлари делегациясининг бир гуруҳ вакиллари Қуролли Кучлар академиясига ташриф буюрди.



# ХАРБИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ТАЖРИБА АЛМАШИЛДИ



Ташриф аввалида меҳмонлар академия инфратузилмаси, таълим жараёнлари ва яратилган шароитлар билан яқиндан танишдилар. Шундан сўнг давра суҳбати ўтказилди. Эркин мулоқот тарзида ўтган учрашувда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари академияси раҳбарияти, профессор-ўқитувчилари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти мутахассислари иштирок этди.

Унда ўзаро мулоқотлар давомида стратегик ҳамкорликнинг долзарб

масалалари, икки давлат олий ҳарбий таълим муассасаларида ҳарбий таълим ва ҳарбий кадрлар тайёрлаш соҳасида тажриба алмашиш каби масалалар муҳокама қилинди. Давра суҳбати сўнггида Покистон Ислоҳ Республикаси Миллий мудофаа университетининг тингловчилари яратилаётган шароитлар учун миннатдорлик билдириб, икки мамлакат ўртасидаги ҳамкорлик даражасини юқори баҳоладилар.

Ташриф режасига мувофиқ, Покистон Қуролли Кучлари делегацияси вакиллари бир қатор олий таълим муассасалари фаолияти, шунингдек, Тошкент ва Самарқанднинг тарихий ва диққатга сазовор жойлари билан яқиндан танишувлари кўзда тутилган.

Шерзод ШАРИПОВ

# Videoselektor

# ЧУҚУР ТАҲЛИЛ ЮТУҚЛАРГА ЭЛТАДИ

Мудофаа вазирлиги марказий аппаратида Мудофаага кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти томонидан ўтган беш ой давомида амалга оширилган ишлар таҳлили ҳамда ҳарбий хизматчилар ўртасида ҳарбий интизомни мустаҳкамлаш, йўл ҳаракати ҳодисалари ва жиноятчиликнинг олдини олишга бағишланган видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтди. Уни мудофаа вазирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари полковник Ҳамдам Қаршиев бошқарди.

Йиғилишда дастлаб мудофаага кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти марказий кенгаши раиси Ҳусан Ботиров ҳисобот берди.

Маърузачи ташкилотнинг кенг қамровли фаолиятини таҳлил қилар экан, мамлакатимиз Қуролли Кучлари учун ҳарбий-техник мутахассислар, халқ хўжалиги учун оммавий касб ходимларини тайёрлаш, спортнинг техник ва амалий турларини ривожлантириш ва оммалаштириш бўйича олиб борилаётган чора-тадбирларга тўхталди. Аҳоли, айниқса, ёшларни Ватанга садоқат, ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, улар қалбида юрт тақдирига дахлдорлик ҳиссини шакллантириш мақсадида амалга оширилаётган эзгу ишларни эътироф этди ва мазкур ишлар самарадорлигини янада ошириш бўйича таклиф ҳамда мулоҳазаларини баён қилди. Шу аснода ташкилотнинг қай даражада катта имкониятга эга эканлигини, бундан эса унумли фойдала-

ниш фақат ижобий натижа беришини мисоллар орқали тушунтириб берди.

Шунингдек, тадбирда ташкилот фаолиятини янада фаоллаштириш бўйича қабул қилинган тегишли қарор ва буйруқларнинг мазмун-моҳияти тушунтирилди, ташкилотнинг жойлардаги кенгашлари фаолияти ҳам таҳлил қилинди. Уларнинг зиммаларига юклатилган вазифаларни бажаришда йўл қўйилаётган суст-кашликлар танқид остига олинди.



III dараjali serjant Olim BERDIYEV



Кун тартибидан ўрин олган кейинги масалалар бўйича сўзга чиққанлар мавзу бўйича тегишли раҳбарий ҳужжатлар ижросини таъминлаш, самарадорлигини ошириш, шу аснода ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш юзасидан амалга оширилаётган профилактик тадбирларга урғу берди. Йиғилиш сўнггида айtilган фикрлар умумлаштирилди ва тегишли таклифлар илгари сурилиб, вазифалар белгилаб олинди.

Шу куни полковник Ҳамдам Қаршиев бошчилигида Мудофаа вазирлиги катта мажлислар залида марказий аппаратга бўйсунувчи ҳарбий қисм ҳайдовчилари билан давра суҳбати ўтказилди. Унда асосий эътибор ҳарбий хизматчилар ўртасида йўл транспорти ҳодисаларининг олдини олишга қаратилди.

Майор  
Гулнора ҲОЖИМУРОВОВА

# Mardi maydonlar



# ЧИДАМЛИЛИК, ЗИЙРАКЛИК, МАСЪУЛИЯТ

ҚАДИМДАН БУЮК САРКАРДАЛАРНИНГ ЖАНГ ОЛИБ БОРИШ НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ, ЖАНГЧИЛАРНИ РУҲЛАНТИРУВЧИ НОТИҚЛИК САНЪАТИ ЭРИШИЛГАН ҒАЛАБАДА МУҲИМ АҲАМИЯТ КАСБ ЭТГАН. АЙНАН МАНА ШУ ХУСУСИЯТЛАР АСРЛАР ДАВОМИДА ЖАНГЛАРДАГИ МУВАФФАҚИЯТНИ ТАЪМИНЛАГАН.

Миллий армиямизда Амир Темури, Жалолиддин Мангуберди, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Темури Малик каби аждодларимиз қўллаган жанг усулларидан фойдаланиб, уларни замонавий кўринишдагилари билан уйғунлаштирган ҳолда қўллаш бугунги куннинг долзарб жараёнларидан биридир. Чунки буюк саркардаларимиз таъкидлаганларидек, жангдаги муваффақият қўшиннинг сони билан эмас, жанговар руҳ, жанговар тажриба каби омиллар билан қўлга киритилади.

Бугунги кунда Мудофаа вазирлиги миқёсида қўшинларнинг жанговар руҳини янада ошириш учун жанговар машғулотларда турли усуллардан фойдаланилмоқда. Қўшинларда ахлоқий-руҳий тайёргарликни ташкиллаштириш тартиби бўйича ўтказилган йиғинда мутахассислар шу мавзуга алоҳида эътибор қаратгандилар. Мазкур ўқув-йиғиндан сўнг тарбиявий ва мафкуравий ишлар ҳамда жанговар тайёргарлик органи офицерлари жойларда машғулотларни ҳамкорликда ўтказишни бошлаб юборишди.

«Термиз» полигонидан мана шундай ўқув машғулотида қатнашган ҳарбий хизматчилар топшириқларни бажариш олдидан жисмоний ҳамда руҳий зўриқиш тўсиқларини енгиб ўтдилар. Жалолиддин Мангуберди жангларининг бирида икки томондан қурбонлар сони кам бўлиши учун қўшиндаги энг сара жангчилар беллашуви орқали тўқнашув тақдирини ҳал қилиш таклифи билан рақибни курашга чақирган. Майдонга чиққан саккиз нафар рақиб жангчисини бир ўзи енгган Жалолиддин нафақат ўз қўшини жанговар руҳини кўтарган, балки тўқнашувнинг талафотсиз бўлишини таъминлаган... Биз ана шундай буюк ▶▶



# ВА ЭНГ МУҲИМИ ЖАНГОВАР РУҲИЯТ

◀ саркарданинг издошимиз ва ҳамиша бунга муносиб бўлишимиз шарт. Подполковник Алишер Ширинов жанговар топшириқни бажаришга киришаётган ҳар бир ҳарбий хизматчини шу тарзда руҳлантирди.

Жисмоний ҳамда руҳий зўриқиш тўсиқларини енгиб ўтган шахсий таркиб бир неча ўқув нуқталарида жанговар машқларни бажардилар. Бунда улар гуруҳларга бўлинган ҳолда яқин масофада жанг олиб бориш, дала ва шаҳар шароитида ҳаракатланиш, разведка-қидирув ишларини амалга ошириш каби жараёнлар бўйича ҳаракат қилишди. Ушбу машғулотга жалб этилган гуруҳ взвод командири майор Хуршид Атавалиев бошчилигида қўйилган вазифани дастур бўйича бажарди.

### III даражали сержант Медед ЭРИМБЕТОВ:

– Гувоҳи бўлганингиздек, бугун шахсий таркибимиз билан ҳар қандай шароит, вазият ва ҳудудда ҳаракатлана олишимизни яна бир марта синовдан ўтказдик. Ўқув нуқталарида машқларни ўташда асосан тезкорлик, нишонни аниқ йўқ қилиш самарадорлиги ва бир вақтнинг ўзида турли жанговар қуроллардан фойдаланиш каби жиҳатларга қаратдик. Жисмоний ҳамда руҳий зўриқиш тўсиқларидан ўтган ҳолда бундай топшириқларни бажариш, ҳарбий хизматчидан ҳамиша чидамлилик, зийраклик, масъулият ва энг муҳими – жанговар руҳиятни талаб этади.

Турли халқаро мусобақаларда, хорижий давлатлар билан ҳамкорликда ўтказилган кўплаб қўшма машғулотларда мутахассислар ўзбек йигитларининг намуна бўладиган жиҳатларини қайта-қайта тилга олганини эшитганмиз. Хорижлик мутахассисларнинг эътирофи қанчалик тўғри эканлигига ижодий гуруҳимиз билан «Термиз» полигонидан яна бир марта гувоҳ бўлдик. Қадри, шашти, жанговар руҳияти баланд тинчлигимиз посбонларига шарафли бурчларини бажаришда бутун халқимиз номидан ҳамиша омад ёр бўлишини тилаб қоламиз.

Асрор РЎЗИБОЕВ,  
«Vatanparvar»



# Islohotlar samarasi

# ЯНГИ БИНОДА

Денов Сурхондарё вилоятининг марказидан олис, аҳоли сонининг кўплиги бўйича етакчи туманларидан бири бўлиб, ҳар йил муқддатли ва сафарбарлик чақирuvi резерви хизмат бурчини ўташ истагида бўлган, олий ҳарбий таълим йўналишларида ўқишни хоҳлаган минглаб ёшлар туман мудофаа ишлари бўлимига мурожаат этади.



## ЗАМОНАВИЙ ИМКОНИЯТЛАР



Бугунги кунда хизматга чақирилувчилар ва олий ҳарбий таълим муассасаси курсанти бўлиш орзусидаги йигитларни замонавий талаблар асосида, шаффофлик билан тиббий кўрикдан ўтказиш замон талабларидан бири. Негаки, бўлғуси Ватан ҳимоячилари ҳар томонлама етук, соғлом, жисмоний бақувват ва билими юқори бўлиши шарт.

Юқоридаги санаб ўтилган ҳолатлардан келиб чиққан ҳолда республикамизнинг барча вилоятлари, шаҳар ва туманларида замонавий мудофаа ишлари бошқармалари, бўлимлари барпо этилмоқда. Шулардан бири – Сурхондарё вилоятининг Денов тумани мудофаа ишлари бўлиmidир. Яқинда фойдаланишга топширилган кўпқаватли бино туман миқёсидаги мудофаа ишлари инфраструктурасини ўзида жамлаган. Бу ерда иш олиб бораётган йигирмага яқин мутахассис мурожаатларни ўрганиб чиққан ҳолда туман аҳолисига беминнат хизмат кўрсатиб келмоқда.

Денов тумани мудофаа ишлари бўлими бошлиғи подполковник Илҳом Бегматовнинг таъкидлашича, илгари

мудофаа ишлари бўлими бир қаватли эски бинода жойлашган. Унда нафақат ходимлар учун, балки туман аҳолиси учун ҳам кўплаб имкониятлар чекланганлиги билан қатор муаммолар туғилган. Мисол учун, бир хонада уч нафар шифокор ишлашига тўғри келган. Бундан ташқари, эски бинода ўқув синфлари ва маънавият хонаси деярли йўқ эди.

Шу каби муаммоларни бартараф этиш мақсадида Мудофаа вазирлиги Денов тумани ҳокимияти билан ҳамкорликда янги бинонинг қурилишида бош-қош бўлдилар. Янги бинода яратилган қулайликларни биргина мисолда келтириш кифоя. Тиббий кўрик учун иккинчи қават тўлиқ ажратилган. Хоналар зарур тиббий ускуналар билан жиҳозлангани, тиббий кўриқнинг шаффофлигини таъминлаш учун ҳар бир хонага видеокамералар ўрнатилгани, комиссия аъзолари суҳбати учун ажратилган жой. Буларнинг барча-барчаси туман ёшлари учун, аҳолиси учун яратилган қулайликларнинг бир кўринишидир.

Айни кунларда олий ҳарбий таълим ва ҳарбий академик лицейларга

ҳужжат тайёрлаш жараёни кетаётгани учун туман мудофаа ишлари бўлими фаолияти билан янада яқинроқ танишиш имкониятига эга бўлдик.

### Алижон АБДУРАҲМОНЖОНОВ:

– Ёшлигимдан ҳарбийлик касбига қизиқишим баланд. Шунинг учун Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юртига ҳужжат топширяпман. Ота-онам ҳам бу қароримни қўллаб-қувватлашди. Тиббий кўриқнинг туман босқичидан ўтиб бўлдим. Мутахассислар бўйим, вазним ва соғлигим бўйича камчилик йўқ дейишди. Энди бемалол тест синовларига жиддийроқ тайёргарлик кўришим мумкин.

### Гулираъно АБДУҒАНИЕВА, Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали 4-босқич талабаси:

– Туман мудофаа ишлари бўлимида йигитлар қатори менинг ҳам ҳужжат топширишим аввалига кўпчиликни ажаблантирди. Шунинг учун уларнинг ҳар бирига ҳарбий шифокор бўлиш истагида эканлигимни эринмасдан тушунтираман. Инсон соғлиғи йўлида шифокорларнинг масъулияти жуда катта эканлигини биламан. Айниқса, ҳарбий шифокорларнинг. Шу касбни

танлаган эканман, барча қийинчиликларни енгиб ўтишга тайёрман.

### Дилмурод ДАМИНОВ:

– Термиз «Ёш чегарачилар» ҳарбий-академик лицейига ҳужжатларимни топширдим. Тенгдошларим орасида ҳарбий-академик лицейларда ўқиш истагида бўлганлар талайгина. Дастлаб кимдир мудофаа, яна кимдир ички ишлар ёки бошқа соҳаларга қизиқиш билдирганди. Туман мудофаа ишлари бўлимида мутахассислар бизни соғлигимиз, вазн ва бўй кўрсаткичларимиз бўйича тегишли йўналишларга тақсимлашди. Мутахассисларнинг кўрсатмалари ва маслаҳатлари бўйича тўғри қарор қабул қилганимиздан мамнунмиз.

Замонавий имкониятларга эга янги бино бўсағасидан шарафли касб йўлига илк қадам ташлаган Алижон, Дилмурод сингари кўплаб ёшлар орзулари ушалишига ишонч билдириб қолишди. Денов тумани мудофаа ишлари бўлими эса ана шундай ёшларга тўғри йўл кўрсатишда давом этаверсин.

Камолиддин АСРОП



# "Mudofaa vaziri kubogi"

**Республикамизнинг турли ҳудудларида миллий кураш ва тош кўтариш спорт турлари бўйича «Мудофаа вазири кубоги»нинг ҳудудий босқичи беллашувлари давом этмоқда.**

Денов тумани «Лочин» стадионида туманнинг учта маҳалласи иштирокидаги мусобақаларда сурхондарёлик полвонлар ҳар икки спорт тури йўналишида 4 та вазн тоифасида ғолиб ва совриндорлар номини аниқлаб берди. Ҳарбий хизматчилар ва деновлик ёшлар иштирокида ташкиллаштирилган спорт мусобақалари ёшлар фестивалига уланиб кетди.

«Лочин» стадионида бўлиб ўтган байрам дастури ҳарбий оқестр, фахрий қоровул, ҳарбий хизматчилар иштирокидаги қўл жанги чиқишлари, болалар ўртасидаги футбол беллашуви ҳамда кўнгилочар дастурларга бой бўлди. Миллий кураш бўйича оғир



# МАЙДОНДА СУРХОН ПОЛВОНЛАРИ

аниқланди. Беллашувлар натижаларига кўра, 55 кг вазн бўйича Олмос Мардонов («Чағониён» МФЙ), 65 кг вазн бўйича Беҳруз Тўраев («Янги ариқ» МФЙ), 75 кг вазн бўйича Абдували Абдувоҳидов («Шамоли» МФЙ) ва 85 кг вазн бўйича эса Бунёд Ҳайитов («Боғи эрам» МФЙ) миллий кураш бўйича биринчи ўринни эгаллади. 55 кг вазн бўйича Муҳиддин Абдулазизов



ваззли полвонлар баҳсида Исмоиддин Қиёмиддинов («Бобур» МФЙ)га тенг келадигани топилмади. Тош кўтаришда Алишер Нормуродов («Ҳазорбоғ» МФЙ, 75 кг) рақибларига имконият қолдирмади.

Термиз тумани Саловат маҳалласида ҳам «Мудофаа вазири кубоги» учун ўтказилган баҳсларда миллий кураш ва тош кўтариш бўйича ғолиблар номи аниқланди. Маҳалла марказида жойлашган стадионда юзга яқин спортнинг ушбу турлари ихлосмандлари туман босқичи йўлланмаси учун ўзаро баҳслашдилар. Беллашувлар натижаларига

кўра, 55 кг вазн бўйича Сардор Омонов («Наврўз» МФЙ), 65 кг вазн бўйича Азиз Хушбоқов («Солиобод» МФЙ), 75 кг вазн бўйича Шоҳрух Ёрматов («Наврўз» МФЙ), 85 кг вазн бўйича Хуршид Хўжайлиров («Жўйжангал» МФЙ) миллий кураш бўйича биринчи ўринни эгаллади. 55 кг вазн бўйича Элдор Боймуродов («Наврўз» МФЙ), 65 кг вазн бўйича Шаҳзод Қурбонов («Гулистон» МФЙ), 75 кг вазн бўйича Азиз Хушвақтов («Солиобод» МФЙ), 85 кг вазн бўйича Нурхон Вадимқулов («Саловат» МФЙ) эса тош кўтариш баҳсларида ғолиб деб топилди.

Денов тумани «Лочин» стадионида ўтказилган баҳсларда миллий кураш ва тош кўтариш бўйича ғолиблар номи

(«Ғалаба» МФЙ), 65 кг вазн бўйича Азамат Абдувоҳидов («Тахта кураш» МФЙ), 75 кг вазн бўйича Зухриддин Шайқулов («Ғалаба» МФЙ) ҳамда 85 кг вазн бўйича Довуд Одинаев («Гулистон» МФЙ) эса тош кўтариш баҳсларида ғолибликни қўлга киритди.

**III даражали сержант  
Акбар АҲМЕДОВ**  
Термиз гарнизони

# "Men g'olib!"

**Ўзбекистон Республикаси Мудофаа ва Спортни ривожлантириш вазирликлари ҳамда Ёшлар ишлари агентлиги ташаббуси билан ҳарбий хизматчилар ва ёшлар ўртасида миллий кураш ва тош кўтариш спорт турлари бўйича «Мен ғолиб!» шиори остида «Мудофаа вазири кубоги» учун беллашувларнинг маҳалла босқичлари кўтаринки руҳда ўтди.**



## ҲАРБИЙ ШАҲАРЧАДАГИ

Ватанпарвар, Кўзқўл, Қумовул, Бағшилиқ ҳамда Жанабозор маҳалларининг энг сара полвонлари Нукус гарнизонидаги ҳарбий шаҳарчада жам бўлиб, миллий спорт ўйинларимизнинг жозибасини намойиш этди. Ҳар бир беллашув ўзгача ҳис-ҳаяжонга тўлиб, соғлом рақобат остида ўтди. Мурасиз баҳсларга бой ўтган мусобақа катта спортга кириб келаётган ёш ва умидли спортчилар ҳам илгари юксак натижаларга эришиб келаётган паҳлавонларга ўзаро тажриба алмашиш, ўз кучи ва имкониятларини яна бир бор синовдан ўтказиш ҳамда кўникмаларини мустаҳкамлашга имкон яратди.



«Ёшлар ойлиги» доирасида ёш авлодни спортга қизиқтириш, улар ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб этиш, миллий спорт турларини ривожлантириш ҳамда умидли спортчиларни кашф қилишга кўмаклашиш мақсадида ўтказилаётган мусобақалар Нукус гарнизонидаги ҳарбий шаҳарчадаги бешта маҳалла ўртасида ўтказилди.

Мусобақада Шимоли-ғарбий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги, Қорақалпоғистон Республикаси



## МУРОСАИЗ БАҲСЛАР

Кураш федерацияси, Нукус шаҳри мудофаа ишлари бўлими ҳамда бошқа давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари иштирок этди. Сўзга чиққанлар полвонларга ҳалол кураш, ғалаба ва муваффақиятлар тилашди. Миллий спортимизнинг ёшлар тарбиясида тутган ўрни эътироф этилди.



Ғолиб ва совриндорларни Шимоли-ғарбий ҳарбий округ қўшинлари қўмондони ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Кураш федерацияси масъуллари медаль, фахрий ёрлиқ ва эсдалик совғалар билан тақдирлади.

**Шимоли-ғарбий ҳарбий округ  
матбуот хизмати**

# Profilaktik tadbir



# БЕПАРВОЛИК – УМР ЗАВОЛИ

Хусусан, Қуролли Кучлар академиясида Мудофаа вазирлиги Ҳарбий автомобиль нazorати инспекцияси ҳамда Тошкент шаҳри йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси ходимлари билан ҳамкорликда «Билимсиз ва тажрибасиз ҳайдовчи – хавф-хатар манбаи» мавзусида профилактик тadbир бўлиб ўтди. Унда Ҳарбий автомобиль нazorати инспекцияси, Тошкент шаҳри йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси, академия раҳбарияти ҳамда ҳарбий офицерлар иштирок этди.

Дастлаб тadbирда Ҳарбий автомобиль нazorати инспекцияси бошлиғи подполковник Баҳодир Аннаев сўзга чиқиб, ҳарбий хизматчиларнинг хизмат фаолиятини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш, улар иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш, йўл ҳаракати қоидаларига риоя этилишини таъминлаш бўйича маърузаларини ўқиб эшиттирди. Ҳарбий хизматчилар бошқарувидаги ҳарбий ва шахсий автотранспорт воситаларининг нazorатини тартибли йўлга қўйиш, шунингдек, ИИВ ЙҲХ ходимлари билан янада ҳамкорликни кучайтириш бўйича фикр-мулоҳазаларни ўртага ташлади.

Шунингдек, тadbир давомида фуқаролар ҳамда ҳарбий хизматчилар иштирокида юз берган автоҳалокатлар ва уларнинг аянчли оқибатлари, статистикалар тўғрисида видеотақдиримот намойиш этилди, улардан зарур хулосалар чиқарилиб, тегишли вазифалар белгилаб олинди.

Тadbир якунида ушбу муаммоларнинг ечими юзасидан ҳарбий хизматчиларнинг фикр ва таклифлари тингланди.



СЎЗ РАҚАМЛАРГА

Ўзбекистонда жорий йилнинг дастлабки уч ойида 1 469 та йўл-транспорт ҳодисаси қайд этилиб, улардан 204 таси воқеалар иштирокида содир бўлган, 39 таси ўлимга сабаб бўлган. Қурбонларнинг аксарияти ўсмирлардир. Йўл-транспорт ҳодисаларининг асосий сабаблари:

- ✓ тезликни ошириш, 455 та;
- ✓ зарур инфратузилманинг йўқлиги, 250 та;
- ✓ йўл ҳаракати қоидаларига риоя қилмаслик, 110 та.

Манба: yuz.uz

Бугунги кунда дунёда йўл-транспорт ҳодисаси оқибатида ҳалок бўлган инсонлар ҳақида хабарлар кунора ижтимоий тармоқлар орқали қулоғимизга чалиниб турибди. Инсон ҳаёти ҳақида гап кетганда, автоҳалокат тушунчаси биринчи бўлиб кўз олдимизга келиши одатий ҳолга айланиб бормоқда. Афсуски, тинчлик замонида бу каби қўнғилни ғаш қиладиган хабарларнинг кўпайишига асосий сабаб, бу – инсонларнинг йўл ҳодисаларига бепарво қарашида.

Айни кунларда мамлакатимизда фуқаролар ҳамда ҳарбий хизматчилар орасида йўл ҳаракати хавфсизлигига риоя этилишини таъминлаш, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш, ҳарбий ва шахсий автотранспорт воситаларини бошқаришда қоидабузарликларга йўл қўймастик ҳамда профилактик тadbирларни доимий равишда ташкиллаштириб бориш мақсадида бир қанча тadbирлар бўлиб ўтмоқда.

# Imtihon



# ҒАЛВИР СУВДАН КЎТАРИЛАДИГАН ПАЛЛА

Айни кунларда Қуролли Кучлар академиясида ҳам битирувчи курсантлар якуний давлат имтиҳонларини топшириш жараёнларини бошлаб юборишди. Бўлажак офицерлар масъулиятли паллада гуманитар фанлар, тактик ва отиш тайёргарлиги, хорижий тиллар, қўшинлар фронт орти таъминоти ҳамда ҳарбий тайёргарлик бўйича тўрт йил давомида малакали устозлардан олган билим ва кўникмаларини ҳам амалий, ҳам назарий жиҳатдан сарҳисоб қилган ҳолда, ўз иродаларини, билимларини синовдан ўтказишмоқда.

Мутахассислик ва умумқасбий фанлар бўйича ўтказилаётган мазкур давлат имтиҳонлари Мудофаа вазирлигининг тегишли бош бошқарма офицерлари ҳамда масъул мутахассисларидан тuzилган комиссия таркиби иштирокида ўтказилмоқда.

Якуний давлат аттестация жараёнларида битирувчи босқич курсантларига

Май ва июнь ойлари – олий ҳарбий таълим муассасаларини тугатаётган битирувчи босқич курсантлари учун ҳал қилувчи палла. Боиси шу вақт мобайнида бўлажак офицерлар давлат имтиҳонларини топширадилар. Жараёнда фақат мустаҳкам билимга эга бўлганларгина юқори натижаларни қайд этади.



Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлиб ўтаётган ушбу жараёнларга масъул давлат аттестация

комиссияси аъзолари курсантларнинг билим, малака ва кўникма даражасининг давлат таълим стан-

дартлари талабларига қанчалик мувофиқлигини шаффоф ва холисона баҳолаб боришади.

барча имтиҳонларда муваффақият ёр бўлишини тилаймиз.



# Keling, kitob o'qiymiz!



# “Yana oldim sozimni”

O'ZBEK ADABIYOTIGA YANGICHA QARASHLAR, YANGICHA YO'NALISH VA YANGICHA NAFAS OLIB KIRGAN IJODKORLARNING ENG BOSHIDA “QALANDAR”, “MIRZAQALANDAR”, “ANDIJONLIK” VA “CHO'LPON” TAXALLUSI BILAN IJOD QILGAN ABDULHAMID SULAYMON TURADI.

Yaqinda qo'limga Cho'lponning 1991-yilda nashr etilgan “Yana oldim sozimni” nomli kitobi tushib qoldi. To'plamda “Kecha va kunduz” romani, “Yorqinoy” pyesasi va shoarning ko'plab she'rlari joy olgan ekan.

## IJODNI QISMAT DEB BILGAN SHOIR

Shoir millatni uyg'otish uchun avval millat onalarini tarbiyalash kerakligini yaxshi tushungan, o'qimishli, hur fikrli va erkin qizlar jamiyat uchun kerakli ekanligini anglagan. Buni biz uning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazi orqali bilishimiz mumkin. Zebining kechinmalari esa shoarning “Men va boshqalar” she'rida teranroq ochib berilgan. She'rni mutolaa qilar ekansiz qobiliyatli, zehni va aqli Zebi jamiyatning qurboni bo'lganligini har bir satrda anglab boraverasiz:

*Kulgan boshqalardir, yig'lag'on menman,  
O'ynagan boshqalar ingrag'on menman.  
Erk ertaklarini eshitg'on boshqa,  
Qullik qo'shig'ini tinglag'on menman.  
Boshqada qanot bor, ko'kka uchadir,  
Shoxlarga qo'nadir, bog'da yayraydir.  
So'zlari sadafdek, tovushi naydek,  
Kuyini har yerda, elga sayraydir.  
Menda-da qanot bor, lekin bog'lang'on.  
Bog' yo'qdir, shox yo'qdir, qalin devor bor.  
So'zlari sadafdek, tovushi naydek  
Kuyim bor. Uni-da devorlar tinglar.  
Erkin boshqalardir, qamalg'on menman,  
Hayvon qatorida sanalg'on menman.*

“Abdulhamid Cho'lpon zulmga qarshi, stalinizmga qarshi, manqurtlikka qarshi ozodlik uchun, she'riyat huquqi uchun kurashganlarning biri edi”, deydi O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi. Cho'lponni titratgan, qaqshatgan zulm edi. Bu zulmga bo'lgan isyon hech qachon uni tinch qo'ymagan. Ozodlikka, hurlikka erishishning birdan bir imkoni ilm, ma'rifat ekanligini yaxshi anglagan vatanparvar ijodkorlar qatori o'ttizinchi yillarda Cho'lponning boshi uzra qora bulutlar behad quyushadi. Endi uni ochiqdan ochiq “xalq dushmani” deb ayblay boshlashdi. Albatta, shoir yonatrofdagilarining unga nisbatan munosabatini anglab yetgan edi. Shunday qilib, Cho'lponning orzusi, tilagi, hasrati uning “Ko'ngil” she'rida yaqqol ifodasini topadi.

## KO'NGIL

*Ko'ngil, sen munchalar nega,  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen muncha sustlashding?  
Haqorat dilni og'ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?  
Tiriksan, o'lmag'ansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsan,  
Kishan kiyima, bo'yin egma,  
Ki, sen ham hur tug'ilg'ansan!*

Cho'lpon she'rlarini o'qir ekanmiz, o'sha davr jamiyati, tuzumi alam bilan tilga olinganiga guvoh bo'lamiz. Uning lirik qahramoni jamiyat farzandi o'laroq gavdalanadi. U hatto tabiat bag'rida ham tuzum qafasini sezib, his etib, bo'g'ilib yashaydi. Cho'lpon uchun eng katta baxt erkinlik, ruhning hurligi edi. Bunday yurak Cho'lponda bor edi. “Amalning o'limi” she'rida ana shunday ruh ko'zga tashlanadi.

## AMALNING O'LIMI

*Ko'nglimda yig'lagan malaklar kimlar?  
Sharqning onalari, juvonlarimi?  
Qarshimda yig'lag'on bu jonlar kimlar?  
Qullar o'lkasining insonlarimi?  
Na uchun ularning tovushlarida  
O'tgan asrlarning ohangi yig'lar?  
Na uchun yozmishning o'ynashlarida  
Har yurish ko'nglimni nashtardek tig'lar?  
Kenglik xayollari uchdimi ko'kka,  
Butun umidlarni yovlarmi ko'mdi?  
Mangu tutqunlikka kirdimi o'lka,  
Xayolda porlag'on shamlarni so'ndi?*

*Yig'lag'on, ingrag'on amal qizimi?  
Ko'kdagi yulduzlar uning izimi?*

Bir vaqtlar Cho'lponning kitoblari kutubxonalarining eng ichkari hujralarida temir panjarali qutilar orasida saqlanar va hech kimning qo'lga berilmas edi. Bu ayblovlardan qutilgan Cho'lpon asarlarini xalq orasiga qaytishi uchun ham ko'p yillar kerak bo'ldi. Bugun uning nomini qo'rquv bilan, hadik bilan emas, g'urur bilan tilga olamiz, uni adabiyotimizning eng porloq siymosi sifatida aytamiz. Aziz kitobxon, agar kitob do'konlariga yo'lingiz tushsa, albatta, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlarini xarid qilishni tavsiya qilamiz. Siz bu asarlarni o'qish asosida avvalo, ijodkorning ko'ngil kechinmalari bilan yuzlashasiz, dil g'uborlaringiz ariydi. Eng asosiysi, bugungi dorilamon kunlarga shukrona keltirasiz, yashashga ishtiyoqingiz ortadi. Aslida, shoarning eng katta orzusi shu edi! Uning she'rlarini o'qir ekansiz, o'zingiz ham bunga ishonch hosil qilasiz. Yoqimli mutolaa tilab qolamiz.

Muattar MELIYEVA,  
“Vatanparvar”



## Binafsha

*Binafsha senmisan, binafsha – senmi,  
Ko'chada aqchaga sotilgan.  
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,  
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?  
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,  
Bir erkin kulmasdan uzilding?  
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,  
Yerlarga egilding, cho'zilding?  
Binafsha,  
Ayt menga,  
Kimlardir, ularkim,  
Ignani bag'ringga sanchalar?  
Binafsha,  
Bir so'yla,  
U qanday qo'llarkim,  
Uzalar, hidlaylar, yancharlar?  
Binafsha, shunchalik chiroyli yuzing bor,  
Nimaga uzoqroq kulmaysan?  
Binafsha, shunchalik tortg'uvchi tusing bor,  
Ko'nglimga isriqlik to'kmaysan?  
Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri,  
Qayg'ungni qayg'umga qo'shgil.  
Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri,  
Bu erdan ko'klarga uchgil.  
Binafsha, go'zalim, qayg'ulim, kelmaysan,  
Qayg'ung zo'r, qayg'umni bilmaysan,  
Menga bir kulmaysan.*



## # Harbiy libosdagi ma'naviyat



# ГЕНЕРАЛ БЎЛ(ОЛ)МАГАН ШОИР



«Боволар тарихи, улар қолдирган мерос қуёшга ўхшайди. Уларга пешвоз юрсанг, пешонанг ёруғ, йўлинг порлоқ, умринг ибратли, кўзларинг нурли бўлади. Агар улардан орқа ўгирсанг, фақат қора соянгни кўрасан, холос» — ёш авлодни ана шундай улугларни эҳтиром қилишга ундаган Ўзбекистон халқ шоири Хуршид Даврон бугун 70 ёшни қаршилаб, боволар қаторидан ўрин олди. Камтарин шоирга ҳарбий хизматдаги йилларини эслатиб, ёшлигини хотирлатиш, суҳбат асносида ўзимизга сабоқ олиш мақсадида учрашиш ниятимиз амалга ошиши биров чўзилди. Ниҳоят, вақтни бир жойга қўйиб, ҳамкасбимиз шоир Бегали Эшонқулов, курсдош дўстим Фарҳод Эшмўминов билан бирга шоир хонадонига кириб борганимизда, қуёш бота вошлаганди. Қисқа танишувдан сўнг бошланган суҳбатимиз тезда авж олди. Хуршид Даврон бор бўй-басти билан қаршимизга чиқиб келарди. Гўё, тарих ва адабиёт бир сиймога мужассамлашиб, бизни ўтмиш билан юзлаштирар, бугун билан муқояса қилар, Ватанга бўлган муҳаббатимизни оширадди:

– Ватан деганда нимани аглаш керак? Она тупроқ Ватанми? Ҳижратда жон бераётган мусофир кўксидан неча йиллар давомида яшириб юрган дил тўтиёси – бир ҳовуч тупроқни боши остига қўйишни васият қилади. Ўлжас Сулаймоновнинг шеъри эсингиздами? Оддий тупроқмикан Ватан тупроғи? Қанча қону, қанча қора тер, қанча кўз ёшу, қанча она сути тўкилган бу тупроққа. Кўзимизни осмондан узмай яшаймизу, вужудимиз шу тупроқники...

Не бахтки, менга ҳам Ватан ҳимоячиси бўлиш таклифи билдирилган. Ўша маҳаллар еттинчи осмонда учиб юрганмиз. Мудофаа вазирлиги марказий нашрининг хизмат юзасидан фойдаланиш учун ҳатто вертолётни ҳам борлигини билардим. Сизни тўғридан-тўғри «капитан» ҳарбий унвони билан оламит, дейишди. Назаримизда, кўп ўтмай генералларга айландик.

Бизга ҳукуматдан бошқа вазифалар кўйилди. Ҳарбий хизмат ҳам қолиб кетди. Йўқса, ўша пайтда вазир ўринбосарига суҳбатга ҳам кириб чиққандик. Хаёлан тахририят вертолётда юрт кезгандик. Балки, шу маҳал (*қўлини елкасига қўяди*) генерал бўлиб, нафақага чиқиб ўтирардим. Пенсиям ҳамма эҳтиёжларимга етармиди, – дейди маъноли жилмайиб. Биз ўзимиз билмайдиган нималарнидир тушунгандек бўламиз. – Муддатли ҳарбий хизматнинг 6 ойини Украинада ўтказганман. Саводим борлиги, тил билишим доим қўл келган. Аксарият бошқалардан алоҳида, вазифалар билан юрардим.

Кейин Германияга юборишди. Ўзимиз хизмат қилган ҳудуднинг газетасига амалиётга бориб, мақола ва хабарлар чиқарганман. Мактабларига бориб турардик. У ерда қатъий тартиб-қоидага амал қилинарди. Биров бировга хиёнат қилганини кўрмадим. Масалан, эрталабдан дўконларнинг олдида маҳсулотларни қолдириб кетишарди. Кимга нима керак бўлса, олиб фойдаланаваради. Ҳеч ким индамайди. Кейин келиб, ҳисоб-китоб қилиб, пулини беради.

Ҳарбий хизмат ҳақида эсласам, икки маротаба расмана ўлимдан қолганим энг биринчи кўз олдимга келади. Полигондаги амалий машғулотлар реал ҳаётдан фарқ қилмасди. Мен алоқани таъминлаб турардим. Жанговар машинада шиддат билан ҳаракатланиб, навбатдаги ўқув нуқталарини забт этишга кетяпмиз. Командирнинг

ёнида туриб, овозкучайтиргичда ҳар бир гапини шахсий таркибга етказиб боряпман.

Кутилмаганда ҳарбий техника шу қадар силтандики, ичидан отилиб чиқиб кетдим. Ёнимизда келаётган БМПнинг олдида қуладим. Ҳайдовчи шу қадар тормоз бердики, омонат жоним омон қолди. Ўзимга келганимда, силкинаётган техниканинг қаерларидир каскамга тегарди. Командирнинг бир дўки билан ирғиб туриб, вазифамни бажаришда давом этдим. Ўшанда мени ўлимдан асраб қолган сафдошимнинг исмини ҳали ҳам унутмайман.

Намунали хизматимиз учун Чирчиқдан бир йигит билан икки кишигина сержант ҳарбий унвонида юртга қайтганмиз. Армиядан тўлиб-тошиб, совға-салом билан келинарди. Менда 4 та жомадон бўлган. Юртдош жўралар билан айрим нарсалар бериш эвазига келишиб, кўтаришиб олиб келтирганман. Жуда ҳам чиройли альбомлар қилганмиз.

Шоирнинг ҳарбий хизмат давридаги суратларини томоша қилиб, бир нечта китобларга дастхат қўйдириб олдик. Тун яримлаб қолди. Хайрлашув олди гапимиз яна Ватан мавзусига уланди:

– Ватан қўйнида яшаётган ҳар бир инсон ўз муҳаббати билан Ватан сарҳадларини кенгайтиради. Муҳаббатсиз юракка Ватан сизмайди. Ҳар бир гўдак, ҳар бир қария ўз дарди билан Ватанни бепоён этади. Дардсиз юракка Ватан сизмайди. Ватан дарди, Ватан муҳаббати яшаган юраккина инсониятни севади, инсоният учун куюнади. «Vatanparvar» газетаси ана шундай юрт ошиқларини тарбиялашдан чарчамасин.

Ўзларинг ҳам ёзган шеърларинг, ҳикояларингдан юборинглар, сайтга қўямиз. Сиз нима ёзасиз, сиз-чи?!

Ижодий ишларимизни, албатта, юборишга ваъда бердик. Ташқарига чиқиб, сал узоқлашганимиздан кейин охириги пайтлар кўпроқ «Пресс-релиз» ёзаётганимизни айтиб, қулишдик. Биз шоир қаршидаги лаҳзаларда хатоларимизни англагандек эдик. Хуршид Даврон кутубхонасида ўзимизни адабиётга киргандек ҳис қилдик. Энди бу туйғу билан ижтимоий фаоллик ўртасидаги кураш узоқ вақт давом этса керак.

**Капитан Азиз НОРҚУЛОВ,  
«Vatanparvar»**

## Ватан

*Дилингизда бўлсин қувончи гами,  
Китобларда эмас, қоғозда эмас.  
Бўзда яшайсизми, Бухородами,  
Сиз билан баробар у олсин нафас.*

*Болангизни белаб қўйинг туш пайми,  
Толлар беланчакни учирсин кўкка.  
Аммо сиз бошида аллалар айтинг,  
Ватан туйғусини солинг юракка.*

*Айтинг, далаларда эгилган лаҳза,  
Айтинг, қуёш қонга ботиб ётганда.  
Айтинг, қувончу гам солганда ларза,  
Айтинг, оқ кўйлакли тонглар отганда.*

*Жанозада йиғлаб аллалар айтинг,  
Айтинг, шуурлару курашлар аро.  
Токи қалбимизда жўш урган туйғу  
Фарзандлар қалбида берсин акс садо.*

*Она Тўмариснинг шонли қисмати,  
Жалолитдин тиғи таратган жаранг,  
Бизнинг юраккача, балки, етмасди,  
Бўлмаганда, халқим, алланг – хотиранг.*

*Беруний юлдузи, Сино қаҳқашони  
Фалакдан йўлимиз ёритиб боқсин.  
Маҳмуд Торобийнинг муқаддас қони  
Фарзандлар қалбида жўш уриб оқсин.*

*Ҳазрат Соҳибқирон тузуқларидан  
Кўчиб, фикрларни ёритсин сурур,  
Дилларни чаргон этсин Навоий  
Қалами таратган ҳикматли шуур.*

*Мирзо Улуғбекнинг расадин тоқи,  
Юрган йўлимизга нурлар тўшасин,  
Ватан деб жон берган ҳар ботир хоки  
Дилда нафас олсин, дилда яшасин.*

*Ватан – юракдаги қувонч, қайғу, шашт,  
Уни тирик сақлар юракдаги сас.  
Ватан – бамисоли қуёшга ўхшаш,  
Ватан ҳам одамдек олади нафас.*



Fikr va mulohazalaringizni  
@Vatanparvargazetasi\_bot  
manziliga jo'natishingiz mumkin

# Qo'mondon va yoshlar uchrashuvi



**Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash – yoshlar siyosatining ajralmas bir qismi bo'lib, respublikamizning barcha davlat tashkilot va muassasalari, mahallalar hamda jamoatchilik uyushmalari ushbu jarayonning uzluksiz harakatlanib turuvchi mexanizmi vazifasini bajarib kelmoqda.**

# ARMIYA VA YOSHLAR

**МУРОЖААТЛАР ЎРГАНИЛДИ, ИМКОНИЯТЛАР ЯРАТИЛАДИ**

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ham mazkur jarayonda tizimli dasturlar bo'yicha qator ishlarni amalga oshirib kelyapti. Harbiy qismlarda yoshlar bilan birgalikda o'tkazilayotgan turli tadbirlar shular jumlasidandir. Ular orasida "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi alohida ahamiyatga ega. Chunki mavjud qo'mondonlik rahbarlari respublikamizdagi hududiy imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlashda, sport musobaqalari, madaniy-ma'rifiy festivallar va boshqa tadbirlarni tashkillashtirishda bosh-qosh bo'layotgani quvonarli.

"Kakaydi" garnizonida joylashgan harbiy qismda bo'lib o'tgan "Qo'mondon va yoshlar" uchrashuvi ham yuqoridagi fikrlarning yaqqol misolidir. Polkovnik Po'latjon Sotvoldiyev

yuzga yaqin Jarqo'rg'on tumani yoshlari bilan uchrashuvda ishtirok etdi. Tumanning o'ndan ortiq mahallasidan taklif etilgan yuzga yaqin yigit-qiz qo'mondon va uning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Alisher Shirinovga o'z savollari bilan murojaat etishdi.

Uchrashuvda, shuningdek, Yoshlar ishlari agentligining mahallalar bo'yicha faollari, Jarqo'rg'on tumani maktablari chaqiruvga qadar boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilari hamda Qurolli Kuchlar faxriylari ham qatnashdi. Mutasaddi rahbarlar yoshlar tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan sport hamda ilmiy vzvodlari haqida ham keng to'xtalib o'tishdi.

Uchrashuv yakunida polkovnik Po'latjon Sotvoldiyev yoshlarning shaxsiy murojaatlari

bo'yicha o'nga yaqin Jarqo'rg'onlik yigit-qizni qabul qildi. Qabul davomida murojaatlarning aksariyati aynan harbiy sohada ish bilan ta'minlash masalasida bo'ldi.

**Shahnoza Saidmurodova, Jarqo'rg'on tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi o'quvchisi:**

– Taekvondo bo'yicha qora belbog' sohibiman. Yigitlar singari harbiy xizmatga juda qiziqaman. Qiz bola bo'lganim uchun bunga imkoniyat yo'q. Harbiy sohada faoliyat olib borishim uchun yana qanday imkoniyatlar mavjud?

**Doston Boboyev, Jarqo'rg'on tumani Gulzor mahallasi fuqarosi:**

– Yaqinda muddatli harbiy xizmatni tugatib qaytdim. Xizmat burchimni o'tash davomida harbiy xizmatga shartnoma asosida ishga kirish uchun hujjatlarimni topshirishga

ulgurmadim. Ushbu masalada amaliy yordam ko'rsatsangiz...

**Furqat Karimov, Jarqo'rg'on tumani Yangi usul mahallasi fuqarosi:**

– Butun mamlakatimiz bo'ylab yoshlar festivali doirasida turli tadbirlar o'tkazilib kelinyapti. Tumanimizda yoshlar ishtirokida harbiy vatanparvarlik doirasidagi gala-konsert o'tkazsak bo'ladimi?

Jarqo'rg'onlik boshqa yoshlar ham qo'mondonga shu mavzudagi savol va takliflar bilan murojaat qildi. Har bir murojaat diqqat bilan tinglanib, yoshlarga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

**Asror RO'ZIBOYEV**

# Kelajak egalari

# MAKTAB OSTONASIDAGI VATANPARVARLIK




**O'quvchilarning yozgi ta'til kunlari boshlanganiga uncha ko'p vaqt bo'lmadi. Ammo shu muddat aksariyat ota-onalar farzandlarining bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash muammosini jiddiy o'ylab ko'rishiga yetarli bo'ldi. Har kim o'zicha, qo'lidan kelganicha bir ishning boshidan tutdi.**

Umumta'lim maktablarida kunduzgi oromgohlar tashkil etilgani bu borada ayni muddao bo'ldi. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 192-umumta'lim maktabida ayni shunday oromgohda dam olayotgan yoshlar ishtirokida "Vatanparvar" – mening tanlovim" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati va imkoniyatlari to'g'risida tasavvurni shakllantirish, sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, tashkilot tizimidagi o'quv kurslariga qiziqishni kuchaytirish va o'qishga jalb etish maqsadida tashkil qilingan tadbir mahalla yoshlari va ota-onalarni ham qiziqitirib qo'ydi.

Yoshlar festivaliga aylanib ketgan tadbir davomida ishtirokchilarning o'q otish, avia va raketamodelizm sport turlariga qiziqishi oshib, ularda o'quv avtomobillari va sport seksiyalarining ko'rgazmalari katta taassurot qoldirdi.

**Abdulla O'KTAMQULOV**



душмандан хабар топиб келишга рухсат сўрайди. У 12 майда ўз сипохлари билан олға кетади, икки кундан сўнг янги ёқилган гулхан изларига дуч келди. Бу беш ойдан бери учратганлари биринчи жонли нишон эди. Қўшин хушёрликни ошириб яна олдинга юради ва Тобол дарёсидан ўтади. Ушбу юриш тафсилотларида қайд этилишича, Тобол ва Ўйиқ дарёлари оралағида қарийб бир ой Тўхтамишнинг дарағи қидирилади. Асирлар ҳам аниқ маълумотни билмайдилар. 6 июнда Ўйиқдан ўтиб, Қирққўл (Челябинск) гача излаб ҳам бирор белги тополмайдилар.

Олтин Ўрданинг собиқ нўени Мамайнинг ўғлини ярадор ҳолида асир олиб келдилар. Унинг маълумотларидан Тўхтамиш турган жойни аниқлаш имкони бўлди. Разведкага борган Ийгу Темур бошлиқ илғор қисмини Тўхтамиш лашкари сезиб қолади ва кучлар тенг бўлмаган шароитда тўқнашув юз бериб, Ийгу Темур ва 2–3 нафар беклар ҳалок бўлади. Соҳибқирон Ийгу Темурнинг ўрнига Қиличқининг ўғли Шохмаликни бек тайинлайди, унинг муҳри ва мулкани бахш этади. Шу ўринда Темурбек, умуман, Темурийлар хонадонига бетимсол садоқат кўрсатган зот катта саҳнага чиқади.

Соҳибқирон Умаршайх Мирзога 20 минг лашкар бериб, тутқич бермас Тўхтамишни топиш вазифасини юклайди. Эртасига керакли хабар Темурбекка келиб етади.

18 июнь куни Самара шаҳрининг шимолидаги Қундузча (Кондурча) мавзеида лашкар алоҳида сафланиб, жанговар ҳолатга келтирилди. Соҳибқирон бу муҳорабага ҳали ҳеч ким қўлламаган янги усулни жорий этди. Қўшиннинг марказ қисмини 7 қўлдан (бу рақамни хосиятли деб биларди) иборат қилиб тузди, «ҳеч подшоҳ андоқ қилмайдур эди ва эшитмайдур эди» (Яздий). Ҳар бир қўлга энг баҳодир ва қўрқмас лашкарбошилар тайинлади. Энг катта қўлни Мухаммад Султонга топширди ва унинг яна икки ёнида сараланган лашкардан қанотлар тузди. Қолган қўлларга Султон Маҳмудхон, амирзодалар Умаршайх ва Мироншоҳ, ҳожи Сайфиддин, Бердибек, Худойдоди Хусайний бош этиб тайинландилар. Ҳар бир бўлинма аниқ режага эга эди. Бундай тузилма қадимул айёмдан урушлар тарихида янги ҳодиса эди. Ҳазрат Соҳибқирон жанг қилиш санъатини тартибсиз савашидан мукамал босқичга, худди шахмат тахтаси устидаги мураккаб «ақл гимнастикаси» даражасига кўтарди.

Ҳали офтоб шуъласи ерга тушмай душман тарафдан қоровул қисми пайдо бўлди. Тўхтамиш уларни Жўчи наслидан бўлган шаҳзодалардан тузган эди. Бирданига Соҳибқирон отлардан тушиб, чодирлар тикишга амр этди. Тўхтамиш бундан ҳайрон бўлди. Унинг қўшини сон жиҳатдан кўп эди. Тарихчи ёзади: «Ҳазрат ҳаргиз черик билан эътиمود қилиб кўнгул қўймас эди, анинг умиди ҳазрат Жаббордан эрди ва одати бу эрдиким, ҳар урушдаким ғаним била муқобила

бўлиб эрди, тушуб икки ракъат намоз ихлос била ўқиб, тазарруъ ва зорий била ҳазрат Ҳақдин нусрат тилар эрди».

Намоз тугагач, байроқлар кўтарилди, ноғора ва нафирлар чалинди, еру кўкни тутган шовқин-сурон билан душман устига от кўйилди. Сафарда бирга бўлган Сайид Барака қўл кўтариб дуо қилди. Жанг бошланди. Аскарларнинг дубулғаси шунчалар ялтирар эдики, уларга тушган қуёш нуридан рақиб лашкарининг кўзи қамашиб қолди. Ҳожи амир Сайфиддин биринчи бўлиб ўзини душмanning сўл қанотига урди ва бир зарба билан рақибларини тўзатиб юборди. Тўхтамишхон лашкари амир Сайфиддин қўлини марказдан ажратиб олиш мақсадида орқадан айланиб ўтишга интилди. Душмanning бу ҳаракатини сезиб қолган Жаҳоншоҳ ёрдамга шошилди. Шаҳзодалар, амирлар, беклар ғалаба иштиёқида шиддат билан чопшидилар. Мироншоҳ бошлиқ қўл ҳам ўз тўғрисидаги рақиб зарбасини қайтариб, қарши ҳужумга ўтди. Айниқса, Мухаммад Султон қўмондонлигидаги қўшиннинг қалби душман тўдасини қоқ ёриб, кучини бўлакка ташлади ва рақиб тарафда парокандалик бошланишини таъминлади. Бердибек ва Худойдод иккаласи иттифоқ бўлиб, душмanning ўнг қўлдаги кучларига қақшатқич зарба бердилар. Жанг майдонининг ҳар бир бўлағида Мовароуннахр лашкари устунликни таъминлади. Умаршайх Мирзо жасорат билан Тўхтамишнинг устига бостириб борди, рақиб ҳужумга дош беролмай қочди. Тўхтамишнинг қочгани хабарини Соҳибқиронга етказдилар. Темурбек унинг изидан борди, бироқ Тўхтамишда тўхтаб уришадиган мажол йўқ эди. Лашкардан ҳар ўн кишидан етти кишини ажратиб, душмanning таъқиб этишга юбордилар. Улар Волга дарёсигача қувиб бордилар. Тўхтамиш ўша томонларга қочиб кетди.

Қундузча мавзесида бўлган жангда Соҳибқирон Темурбекнинг ҳарбий даҳоси оғир синован муваффақиятли ўтди. Амалда нотандан бўлган дала шароитида, сон жиҳатдан кўп душманга қарши жангда фақат қўшинни тўғри бошқара олиш йўли билан ғалабага эришилди. Бу зафар ҳали олдинда турган оламшумул муваффақиятларнинг бир нишонаси эди, холос.

Жўчи авлодидан икки шаҳзода – Кунча ўғлон ва Идику ўзбек ҳазрат қошига келди. Улар Тўхтамиш билан келиша олмас эдилар. Соҳибқирон уларга сарполар берди, улусларига бошлиқ қилиб тайинландилар. Умуман, бу галги ғалаба айнан мўғуллар яшаган заминда, улар давру даврон сурган худудларда нишонланаётган эди. Соҳибқирон қўшинида уларнинг кўплаб уруғдошлари бор эди, баъзилари яхшигина мавқега эга эдилар. Қариндошлар бир-бирларини излаб кетишади, баъзилари уларни бошлаб Самарқанд лашкари сафига олиб келса, баъзилари бу ёқдан у ёққа қочиб кетади. Хуллас, Соҳибқирон Тўхтамишнинг ўрнига ўзига хайрихоҳ бўлган Чингизийлардан ҳукмронлар тайинлайди. Шу йўл билан Тўхтамиш давлати ва Мовароуннахр ўртасида буфер юзага келади.

ҲАКИМ САТТОРИЙ

Волга бўйларида эришилган зафар муносиб нишонланади. Ғолиблар жуда катта миқдордаги ўлжага эга бўладилар. Қўшинга мириқиб ҳордиқ чиқаришга изн берилади. Улар 26 кун давомида Тўхтамиш устидан эришилган ғалабани нишонлайдилар. «Дунёдаги энг гўзал қизлар хизматда бўлди», деб ёзади тарихчилар ўша кунлар ҳақида.

Шундай қилиб, Олтин Ўрданинг мавқеига путур етди. Икки асрдан буён бутун Европага таҳдид солиб турган рақиб чекинди, уларни ҳам енга оладиган, тиз чўктирадиган куч дунёда пайдо бўлганини ҳамма билди.

Бу юришдан кўзланган стратегик мақсадга тўла эришилди. Энди бу ёқларда узоқ қолиб бўлмасди. Зафарнишон лашкар Ватанга йўл олди.

Тарих китобларида шимолдан Ватанга Хоразм орқали қайтилгани, Соҳибқирон бу жойдаги ободончилик ишлари билан обдан танишгани, янги топшириқлар бергани қайд этилади. Қалъа аллақачон қад ростлаган, бошқа юмушлар ҳам кўнгилдагидек давом этарди. Ҳазрат йўл-йўлакай Питнақда тўхтаб, шу жойда қўним топган сайидлар – Абу Муслим (халқ китоблари – «Або Муслим жангно-малари»ни эслайлик) авлодларига ўзининг алоҳида эҳтиромини изҳор этади, махсус ёрлиқ билан уларнинг дахлсизлиги ва имтиёзларини кафолатлайди. Маълумки, Абдурахмон ибн Муслим – Абу Муслим (718–755 йиллар) Умавийлар – Муовия ва Язид тарафдорларидан ислом ҳукмронлигини қайтариб олиш, Пайғамбаримиз Мухаммад (с.а.в.) арконларини қайта тиклашда Наср ибн Сайёр билан қаттиқ курашган, Аббосийлар тахтни эгаллагач, Хуросонга ноиб қилиб тайинланган ва Мовароуннахрда ҳам бўлган машҳур лашкарбошидир. Энг эътиборлиси, бизгача жуда кам етиб келган Темурийлар даври ҳужжатларининг асл нусхалари ичида Соҳибқироннинг муҳри чекилган ушбу ёрлиқ ҳам бор. Унинг фотонусхасини муҳтарам олим Иброҳим Мўминов ўзининг машҳур рисоласида эълон қилган, асли ҳам музейларимизда сақланади. Қолаверса, эски ўзбек тилида ёзилган бу ноёб топилма ўша давр расмий услубини, ёрлиқ матнини тарихий, лингвистик ва этимологик ўрганишда муҳим манба бўлиб, кўплаб тадқиқотларга асос бўлган. Шу хилда Тўхтамиш устидан қозонилган зафарнинг бир эпкини маданиятимизни бойитиб турибди.

Ғолиб лашкарлар 11 ойдан кейин Мовароуннахрда қайтиб келдилар. Соҳибқирон ўша йил киши Тошкентда ўтказди. Шимолга уюштирилган юриш сабоқлари таҳлил қилинди, ўлжаларнинг ҳисоб-китоби олинди, яна навбатда турган юмушларга тайёргарлик кўрилди. Энди жануб ўзига чорлаётган эди.

Соҳибқирон Амир Темурнинг таржимаи ҳолига бағишланган «Буюк ҳаёт баёни» китобидан

Ривоят қилишларича, лашкарнинг аҳволи ҳақида Соҳибқирон Самарқандга хат ёзиб, Сароймулкхонимдан маслаҳат сўрайди. Хазинадан мавлағ жўнатишини талаб қилади. Бибихоним ҳазратга шундай жавоб ёзган экан:

«... хазинангиз-ку тугавди, сиёсатингиз ҳам тугадими?» Соҳибқирон бу тағдор гапни мулоҳаза қилиб кўриб, шундай йўл тутибди: ҳайвон суякларини турлича шаклда қирқтириб, уларга муҳр босибди-да, пул ўрнида навкарларга тарқатибди. Кейинчалик катта войликка эга бўлишгач, суякларнинг қиймати алмаштириб берилган экан.

Овдан кейин Соҳибқирон қўшинини кўриқдан ўтказишга аҳд қилди. Лашкар фавжларини ўғиллари – Умаршайх ва Мироншоҳ, набираси – Мухаммад Султон, шунингдек, Султон Маҳмудхон, Худойдоди Хусайний, Шайх Темур бошқаришарди. Икки кун давом этган кўрик юқори тайёргарлик ва байрамона кайфиятда ўтади (Шуниси эътиборлики, «Темур тузуқлари»нинг «Сипоҳнинг яроқ-жабдуқлари ва анжом-жиҳозлари тузуғи», «Жангу жадал, уруш майдонига кириш, қўшинни сафлаш ва ғаним лашкарини синдириш тузуғи» бўлимларида сипоҳ ва қўшиннинг аҳволи жуда аниқ белгилаб қўйилган. Демак, кўриқда ўша талабларнинг бажарилиши текширилган). Бу тадбир ҳам Соҳибқирон ҳарбий таълимнинг бир бўлағи эди.

Ниҳоят, натижасиз кезишлардан зериккан Соҳибқироннинг шерюрак набираси Мухаммад Султон бобосидан қўшидан ажраб илгари боришга ва

# Sharqona o'g'itlar

# QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH

**Bugungi rivojlanish jarayonida mustaqil huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan davlatimiz uchun barkamol avlod**

**tarbiyasi ustuvor siyosat darajasiga ko'tarildi. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ilmiy, ma'naviy, axloqiy merosi, mutafakkirlar va allomalarimiz qoldirgan ko'plab ilmiy asarlar, kashfiyotlar, umrboqiy qadriyatlar va an'analardan foydalanish katta ahamiyatga egadir.**



**B**uyuk ajdodlarimizning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, mamlakatimizning turli qadimiy shaharlarida topilgan tarixiy yodgorliklar, osori atiqalari butun jahonning bebaho mulki hisoblanadi. Bu borada o'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari ijodi yetakchi o'rin egallaydi, deyishga bugungi kunda asosimiz bor. Jumladan, algebra faniga asos solgan Muhammad

ibn Muso al-Xorazmiy, astronomiya fani asoslarini yaratgan Ahmad Farg'oni, o'rta asrlarda Sharq ilm-faniga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Sharq va Yevropada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun Shayx-ur-Rais, Sharqda "Olimlar boshlig'i", Yevropada "Olimlar podshosi" nomi bilan mashhur bo'lgan, o'rta asrlar Sharq allomalaridan biri Abu Ali ibn Sino turli sohalarda juda ko'plab ilmiy asarlarning muallifi, shuningdek, ta'lim-tarbiya sohasida ham

o'z pedagogik qarashlariga ega bo'lgan yetuk tadqiqotchi olimdir. Tarixdan ma'lumki, Ibn Sino ham o'z davrining alloma va mutafakkirlari kabi ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini mavjud ijtimoiy falsafiy jarayonlar bilan bog'liq holda asarlarida ifodalagan. U bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Maktabga barcha kishilarning farzandlari jalb qilinishi va barchasi o'qitilishi hamda tarbiyalanishi lozim, deb bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarni, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilishi, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishi asosiy maqsad bo'lgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari pedagogika tarixida ta'limiy-axloqiy usulda yozilgan barcha asarlarning tamal toshidir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilda yaratilgan bo'lib, Qoraxoniylar davlatini mustahkamlash uchun idora usullarini yaratish, barcha tabaqa va toifadagi

kishilarning xulq-atvori, jamiyatdagi tutgan o'rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlatning mustahkamligining birinchi tayanchi – insonni ma'naviy kamolga yetkazish masalalari qamrab olinadi. Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani hal etishda faqat donishmand, qomusiy mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o'zini namoyon etdi.

Yana bir ta'limiy-axloqiy asar Kaykovusning "Qobusnoma" asari bo'lib, pandnoma turkumidagi dastlabki asar sifatida necha asrlardan beri xalqni, ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo'llanma bo'lib kelmoqda. "Qobusnoma" asari esa insonni ma'naviy kamolotga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur asar juda ko'p Sharq va G'arb tillariga tarjima qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni o'rganish, milliy urf-odatlarimiz va an'analarni qaytadan tiklash davr talabiga aylandi. Mamlakatimizda yashovchi barcha fuqarolarda o'zlikni anglash, milliy g'urur, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni bunyod etishga qaratilgan ulug'vor maqsadlarni amalga oshirish kabi tuyg'ular kamol topib, ularning bugungi va ertangi kunga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda.

**F. SULTANOVA,**  
Qurolli Kuchlar xizmatchisi

# Kechinma

## “HARBIY XONIM” DAN MAKTUB

Oliygo...  
Ma'ruza...  
Eshityapsizmi?  
Orqa partadagi yurak zarbini.  
Men ilk bor o'rgandim shu ma'ruzada,  
Ulkan muhabbatning kichik harfini.

Partalar oralab sinfxonaning  
Shovqinida suzar sezilmas tuyg'u.  
Manavi nigohga qarab to'ymayman,  
Sekin jilmayadi.  
Bu qanday belgi?

Assalomu alyakum, yaxshimisiz,  
Anvar aka? Bu xatni sizga ma'ruza vaqti  
yozyapman. Daftarim orasida sizdan  
kelgan xat va ikkimiz tushgan surat.

Esingizdami? Siz meni  
"Choliqushi"dagi Feredega o'xshatar  
edingiz. Mana, uch kundirki, shu asarni  
yana qo'limga olib, o'qiy boshladim.  
Shundan buyon siz bilan o'tgan kunlarni  
yana esladim. Ayniqsa, shu kitobni  
sotib olish uchun kitob do'konlarini  
kezmanim, topganimizda, dunyolarcha  
sevinganimiz. Eh... bu asar men uchun  
bizning ilk xotiramiz bo'lgan.

Bugun ham jahon adabiyoti  
darsidamiz va ayni vaqtda shu asar  
ma'ruzasini tinglayapman. Haqiqatan  
ham Gulbashakar (Ferede) va mendagi  
o'xshashlik hayratlantirdi. Oxirgi bor  
ketishingiz oldidan ikkimiz tortishganimiz,  
kechagidek esimda...

**O'sha jumlarlar...**  
"Qachon xafa bo'lsang, ko'zlaring  
porlaydi, chehrang ochiladi. Dunyoni  
pisand qilmaganday qah-qah urib  
kulasan, turli sho'xliklar, telbaliklar  
qilasan. Shu bilan birga, oh-u zorini yaqin  
odamiga, boshqalarga aytolmaydigan  
kishilar uchun buni juda yaxshi odat deb  
hisoblaysan. Bu seni qaysarliging qachon  
tan olasan".

O'shanda sizdan xafa bo'lib,  
"Meni yaxshi bilmaysiz!" deya hamma  
so'zlaringizni inkor qilgandim.

Tan olaman, siz meni juda yaxshi  
bilar edingiz. Hattoki, o'zimdan-da  
ko'proq. Sizdan nimaga xafa bo'lganimni  
mana bugun aytaman. Asarda Ferede  
Kamronning safarga ketayotganini  
hammadan keyin dugonasi orqali  
eshitadi. Qay darajada o'xshashlik!  
Men ham sizning harbiy xizmatga  
ketayotganingizni hammadan keyin,  
dugonamdan eshitgandim. O'shanda  
juda xafa bo'lganman. Mana, endi esa  
tushunib yetyapman.

Bilaman... mening qaysarligim,  
o'jarligim, gapga ko'nmasligim doim  
sizni tashvishga solgan, balkim, ranjitgan.

Bularning barchasini ketar chog'ingiz  
anglaganman. Endi bilsam, haqiqatan ham  
shunday ekanman. Yaqinda singlingiz  
maktub olib keldi. O'qiddim. Ahvolingizdan  
boxabar bo'ldim. Xizmatni a'lo darajada  
uddalayotganingizdan sevindim.  
Bilasizmi, har gal "Harbiy bo'laman",  
deganingizda, juda quvonardim. Yana bir  
yaqin insonim Vatani, yaqinlari uchun yurt  
yukiga yelka tutishi men uchun baxt edi.  
Ha-ha, to'g'ri o'qidingiz, siz ham mening  
yaqin insonimsiz! Buni sizga ancha oldin  
aytmoqchi edim, lekin vaqti mana bugun  
ekan.

Harbiylar deganda, ko'z oldimda  
qaddi tik, qadamlari dadil, shaxti baland,  
yuzlaridan jiddiylik sezilib turadigan  
Vatan himoyachilari gavdalanadi. Bir  
gal amaliyot bahona ularning bir kunini  
o'rganish uchun harbiy qismga bordik.  
O'shanda hayotimni harbiy jurnalistika  
bilan bog'layotganim va tanlayotgan  
kasbimdan faxrlangandim...

Ayni vaqtda harbiylar hayoti, ularning  
mashaqqatlari-yu yutuqlarini yoritishdek  
mas'uliyatni zimmamga olish uchun soha  
sirlarini qunt bilan o'rganyapman...



Aytgancha, ikkinchi bosqichni  
tamomlash arafasida, mana, yana  
amaliyot boshlandi. Men ham amaliyot  
uchun yo'llanma oldim. Yaqinda ijtimoiy  
tarmoq orqali shaxsiy blogimni yurita  
boshladim. Uning nomini "Harbiy xonim"  
deya atadim. Obunachilarim ham bor.  
Hozir meni tanigan-bilganlar harbiy xonim  
deya, atashadi. Bu e'tirofni eshitishning  
gashti o'zgacha ekan. Quvonib  
ketyapman...

Kecha onangiz bilan gaplashdim.  
Ular gap orasida sizni so'radilar. "Harbiy  
qismlarga boryapsizlarmi? Anvarjonni  
ko'rdingmi?" deya. Men esa uyalibgina,  
"Ha, boryapmiz, lekin ularni hali  
ko'rmadim", dedim. Ular esa: "Ko'rib  
qolsang, salom ayt, sog'inganimizni ham  
yetkazib qo'y!" dedilar. Amaliyot bahona  
harbiy qismingizda ham mehmon bo'lish  
nasib qilib qolar. Intiq bo'lib kutyapman,  
o'sha kunlarni.

O'shanda siz meni ko'rganingizda,  
gaplashganingizda, qaysar "harbiy xonim"  
botinida yashiringan qat'iyat va jasurlikdan  
hayratlanarsiz, yana bilmadim...

**Nilufar ALIYEVA,**  
O'zJOKU Harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi

## # Huquqiy targ'ibot

# INTIZOM

So'nggi tahlillar mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining oldini olish, fuqarolarning yo'l harakati qoidalariga og'ishmay rioya qilishlari bo'yicha keng gamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkillashtirish, bu boradagi chora-tadbirlar salmog'ini yanada oshirish va jadallashtirishni taqozo etmoqda.



Zero, shu orqali haydovchilarning yo'llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirish, yo'l qo'yilayotgan qoidabuzarliklarga chek qo'yib, yo'l transporti hodisasi bilan bog'liq huquqbuzarliklarga barham berish va ularning ayanchli oqibatlarining oldini olishga erishish mumkin.

Shu maqsadda, Qarshi harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat obyektlarida muntazam ravishda viloyatning qator mutasaddi idora va organlari bilan hamkorlikda

"Yo'l harakati qoidalarini"ning mazmun-mohiyati, unga kiritilgan so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar tushunchasini targ'ib qilishga qaratilgan profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Ayniqsa, bu kabi targ'ibot tadbirlarini yoshlar o'rtasida o'tkazish, ularga yoshligidanoq yo'l harakati qoidalariga itoatkorlik

ruhini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shahrisabz shahridagi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida o'tkazilgan navbatdagi tadbir ham aynan shu maqsadda tashkil etildi.

"Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi" deb nom olgan mazkur tadbirda Qarshi harbiy prokuraturasi prokuror-

tergov xodimi, viloyat IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi inspektori va boshqa mutasaddilar ishtirok etib, yoshlarga yo'l harakati qoidalarini mazmuni, yo'l transporti hodisalarining ayanchli oqibatlari haqida batafsil tushunchalar berildi, shuningdek, yo'llarda haydovchi va piyoda sifatida harakatlanish qoidalarini nazariy

va amaliy usullarda ko'rgazmali namoyish qilindi.

Tadbirda o'quvchilar bu boradagi fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.

**Adliya podpolkovnigi  
Sobir ASHRAPOV,  
Qarshi harbiy prokurorining  
o'rinbosari**

## BOLALIKDAN BOSHLANADI

## # Sayyor qabul

### MUROJAATLAR O'Z YECHIMINI TOPMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining o'rinbosari Sarvar Muxitdinov va favqulodda vaziyatlar vazirining o'rinbosari Kamil Abdijalilov boshchiligida Samarqand shahrida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.



Unda mutasaddi idora va turli soha mutaxassislari jalb etilib, 200 nafardan ortiq fuqaroning 65 ta murojaati qabul qilindi.

Ularning 39 tasiga qonuniy tushuntirish berildi, o'rganish uchun qo'shimcha vaqt talab etadigan 4 ta murojaat nazoratga olingan holda tegishli mutasaddi idoralarga yo'naltirildi, 22 tasi esa joyida hal etilib, qanoatlantirilishi ta'minlandi.

Tadbir davomida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida harbiy xizmatni o'tab kelayotgan 11 nafar xodimning farzandlariga oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar va 2 nafar harbiy xizmatchiga navbatdagi harbiy unvonlar tantanali ravishda topshirildi.

**Adliya podpolkovnigi  
Sardorbek YORMATOV,  
Respublika Harbiy  
prokurorining yordamchisi**

## # "Men g'olib!"

### KUHLILAR KURASHDI, POLVONLAR TOSH KO'TARISHDI



Qurolli Kuchlar akademiyasida "Men g'olib!" shiori ostida milliy kurash va tosh ko'tarish sport turlari bo'yicha "Mudofaa vaziri kubogi"ning 1-bosqichi o'tkazildi.

Shu maqsadda Yoshlar ishlari agentligi, Kurash federatsiyasi bilan hamkorlikda Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan Oqqo'rg'on mahallasi yoshlari o'rtasida milliy kurash va tosh ko'tarish sport turlari bo'yicha "Mudofaa vaziri kubogi"ning 1-bosqichi bo'lib o'tdi.

Qizg'in va ko'tarinki ruhda tashkil etilgan musobaqa, g'oliblari diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanib, keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

**Kapitan Sardor ORZIYEV**

# SABABSIZ OQIBAT

## BO'LMAYDI

Har bir inson niyat qiladi. U yaxshi yoki yomon bo'lishi ham mumkin. Niyat, xoh ezgu bo'lsin, xoh yovuz undan natija kutiladi. Nima bo'lganda ham odamlarning o'zlari uchun yoqimli, kutilgan natija ko'zlanadi, maqsad qilinadi. Bu – nisbiy yakun. Maqsad hosil bo'lishi uchun ish tizimli tashkil etilishi kerak. Aks holda, zid natijaga erishiladi. Demak, vayronkor yoki bunyodkor bo'lsin, ish, avvalambor, rejalashtiriladi. Bu tafakkur degani. Rejaning puxtaligi, ilmiy asoslangani muhim. Xullas, insonlar ongi – bugungi zamon mafkuralar jang maydonida ustunlik qilish, qo'li baland kelish, natijador tasir usullarini o'ylab topish, hayotga ko'chirish – birlamchi vazifa.

Ikkinchidan, oxirgi paytlarda ko'plab tadqiqotlar natijasi o'laroq, dissertatsiyalar tayyorlanmoqda, himoya qilinmoqda. Ammo ularning ko'pchiligi amaliyotga joriy etilmay qolmoqda. Bu o'rinda nazariy ilmlarning amaliyotga joriy etilmayotgani ko'rinmoqda. Aslida, ilm, tadqiqot foydaga aylangandagina ahamiyatli jihatlari namoyon qiladi. Demak, har bir tadqiqot ishi hayotga yaqin, monand bo'lishi zarur.

Yana bir masala. Ajdodlar merosi asosida qilingan tadqiqotlar manbashunoslik, matnshunoslik doirasidagina qolib ketmoqda. Bu taxlit yondashuv ham zarur, ammo bugun ularning merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, zamon bilan muqoyasa qilish, davr ilmiga taqqoslash, bir so'z bilan aytganda, inson hayotining mazmuniga aylantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan benazir meros nafaqat o'z davri, balki bugungi zamon uchun ham dolzarb. Ular jamiyatni isloh qilish usullari bo'yicha tafakkur qilgan, ijtimoiy hayotni yaxshilash yo'llarini tadqiq qilgan, jamiyatda uchraydigan har bir illatni o'z vaqtida ilg'agan, qarshi kurashning samarali usullarini o'ylab topgan, tajribada qo'llagan. Eng natijadorlari asosida asarlar yozib, kelajak avlodni vayronkor g'oyalardan ogohlantirgan. Bundan to'g'ri xulosa chiqarmoq kerak.

Hozirda ayrim G'arb mamlakatlarining zamonaviy tadqiqotlarida allomalimiz ilmiy merosiga qiziqish o'ta yuqori. Yurtimizda ezgulik tarbiyasi, targ'iboti ona allasidan boshlanib, bir umrlik ish sanaladi. Ona allasi – millat orzusi, mamlakat taqdiri. Ularda ilgari surilgan g'oya alla doirasida qolmasin – tashqariga chiqsin, hayotga ko'chsini. Alla – uyg'otuvchi vosita. U inson qalbidagi sof fazilatlarini uyg'otishga xizmat qiladi. Allani, uning mazmunini natijaga aylantirish kerak. Shunda u tarbiyaning keyingi bosqichi – ta'lim bilan bog'lanadi. Bola shu tariqa, avval, tinglaydi, keyin ko'radi. Shundan keyingina amal davri boshlanadi. Demak, yoshlikda nima o'rgatilsa, shu amal ko'rinishida qaytadi. Demak, hayo, ibo, odob, axloq yoshlikdan – bolalikdan o'rgatilishi, norasida onga "joylanishi" lozim. Ona allasi, keksalar nasihati bilan qalblarimizga o'rnashadi. Qadimdan shunday davom etib kelgan.

Qayerga bormaylik, beixtiyor binolar peshtoqlari, yo'llar bo'yidagi shiorlar, hikmatlar, iboralarga ko'zimiz tushadi. Ularning aksariyati mazmunan boy, zamonga mos. Ammo mana shu mazmuni qanday angalayapmiz? Angalayapmizmi o'zi? Anglayotgan bo'lsak, qay darajada? Shunday ekan, avvalambor, bannerlar matnini to'g'ri tanlash kerak. Ikkinchidan, ularning mag'zini avval o'zimiz chaqib, keyin boshqalarga tushuntirishimiz to'g'ri bo'ladi. Toki odamlar ularni ko'rganida, o'qiganida ta'sirlansin, targ'ib qilsin. Shunchaki yonidan o'tib ketmasin; bir to'xtab, hech bo'lmaganda, "ko'z yugurtirsin". Shunga majbur bo'lsin. Matn mazmuni ularning suhbat mavzusiga aylansin. Shunchaki, mantiqsiz boqmasin ularga. Ularning matni zamon bilan toblangan, ibratli, ezgulik targ'iboti, shuning barobarida, tili sodda va ravon bo'lishi muhim.

Ilmda "sababsiz oqibat bo'lmaydi" degan qarash bor. Sabab qanday bo'lsa, uning qay turi tanlansa, natija shunga muvofiq bo'ladi. Natijaning yomonligi uchun tanlangan sababdan xafa bo'lish lozim. Bu tarbiyaga ham, ta'limga ham birdek taalluqli. Demak, bugun sabablar ustida ishlash payti keldi.

Sabab nima? Sabab – ixtiyor, tanlov, ilm, amal, niyat.

Muborak hadislarda keltirilishicha, amallar niyatlar bilandir. Shunga ko'ra, niyatni to'g'rilash, xoslash, sog'lomlashtirish kerak. Amal va natija – keyingi masala. Shunga ko'ra, ziyolilar oldida xalqimizning barcha qatlamlari ongi va qalbiga niyatni xolis qilish, amalda mustahkam bo'lish, natijadan zavq olishni singdirish masalasi yotibdi. To'g'ri niyat, qattiq jiddu jahd samarasi o'laroq erishilgan natija chin ma'noda huzurbaxsh bo'lib, undan tan rohat olib, qalblar taskin topadi. Bu dunyo – sinov davri. Ehtiyojlar olami. Inson tug'ilishi zahoti ehtiyojlari ham vujudga keladi. Ular ulg'ayganimiz sari kattarib boraveradi. U o'sib boruvchidir.

Zamon ehtiyojlaridan biri – mol-u dunyo, boylik. Inson zoti unga yetishish, o'zida borini ko'paytirish uchun nimalarga qodir emas deysiz?! Ayniqsa, u "pul – jon", "hamma narsani sotib olish mumkin", "moddiyat ma'naviyatdan ustun" aqidasi amal qiluvchi bo'lsa! Oramizda birovlarning tushirib qoldirgan ko'p pulini topib olishni orzu qiladiganlar borligini bilamiz, ishlamasdan, birdaniga boyib qolishni xohlaydiganlarni ko'rganmiz. Ular jinoyatga moyil, o'zganing haqqidan qo'rqmaydigan va shu sabab ma'naviy tarbiyaga muhtoj insonlardir. Boy davlatidan ehson qilib, savobga noil bo'ladi. Kambag'al-chi? Uning to'g'ri niyatiga, qilgan shukriga savob va'da qilingan. Demak, boylikda fazilat, faqirlikda esa hikmat bor.

Ilmi bilan qanoat qilishning bir hikmati bor. Manbalarning ta'kidlashicha, "dunyo va uning ichidagi barcha narsa la'natlangandirki, ilm va ilm oluvchi bundan mustasno". Binobarin, ilmga oshno – u xoh boy bo'lsin va yo kambag'al – ezgulik istovchi, bani basharga yaxshilik sog'inuvchi bo'ladi. Mazkur qarash "kufarga yaqin faqirlik"ka ham oydinlik kiritadi. Bu o'rinda "faqirlik"dan muvofiq ilm va sabrdagi kambag'allikdir. Nasafiy mol-u dunyosi kam odamlarga ta'rif berar ekan, "kambag'al g'oyatda azizligidan odamlar ko'zidan bekindi", deydi. Agar u ilmda komillikka erishsa, buyuklashadi, ulkanlashadi, aziz-u mukarram bo'ladi. Barcha zamondoshlari-yu kelajak avlod nazariga tushadi. Zero, Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan shunday rivoyat qilinadi: "Dunyo xazinalarining kalitlari menga ko'rsatildi, ularni qabul

qilmadim va aytdim: "Ikki kun och yuraman, bir kun to'q yuraman. Ey Rabbim! Meni miskin holda yashat, o'ldir va shu miskinlar ichida qayta tiriltir".

Xullas, Nasafiy va ko'plab allomalarning qarashlariga binoan, mol-u dunyodagi boylik yoki kambag'allik insonning imkoniyatlari bilan bog'liq. Odam qudratidan ortiq mas'uliyatni zimmasiga olmasligi, uni Yaratgandan so'ramagani ma'qul. Aksincha, adashadi. Hayvonlar va qushlar tilini tushunishni istab, oxir-oqibat halok bo'lganning yoki Payg'ambarimiz (s.a.v.) dan qo'ylari ko'payishi uchun duo so'rab, umrining so'ngiga qadar nadomat chekib, pushaymon o'tganning holiga tushadi. Bunday insonlar me'yorni bilishi muhim. Shunda ham dunyoviy, ham uxroviy ishlari badastir bo'ladi.

Bir hadisda keltirilganidek, "dunyoni istagan tijorat qilsin. Oxirat istagan zuhd qilsin. Bularning ikkisini ham istagan ilm qilsin". Tijorat – boy bo'lishning samarali va sinalgan usuli. Zohidlik – bu dunyodan yuz o'girib, tarkidunyo qilish. Bunda inson ibodatdan o'zga narsani tan olmaydi. Ilm egallagan olim esa bu ikkisini ongli amalga oshiradi. Bu dunyoni ham, unisini ham unutmaydi – mahkam tutadi. Boshqacha aytganda, qo'li ishda, qalbi Allohda bo'ladi. Binobarin, barcha zamonlarda ham har bir jamiyat o'zidan ma'naviyat nurini taratib turuvchi boylarga ehtiyoj sezgan.

Bu esa moddiyatdan MA'NAVİYAT va MA'RIFAT afzal ekanini tasdiqlaydi. Azaldan shunday bo'lgan va bo'lib qoladi!

**Munira QAHHOROVA,**  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar  
instituti direktori o'rinbosari,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori



## # Salomatlik

# OFTOB URISHIDAN HIMOYALANING!

Inson shunday yaratilganki, qahraton sovuqda ham, jazirama issiqda ham tana haroratini bir xil darajada ushlab turadi (36,2-37,2°C). Organizm har qanday iqlim sharoitlariga moslashish xususiyatiga egadir. O'zbekiston iqlimiga xos bo'lgan havoning quruqligi hamda mo'tadil esib turadigan shabada, tanadan terlash yo'li bilan issiqlik ajralishiga, qisqacha qilib aytganda, organizmni issiq iqlim sharoitiga moslashishiga yordam beradi.



Yurtimizda yoz kunlarida havo harorati kunduzi 40 darajadan yuqori bo'lsa, cho'l hududlarida 45 daraja va undan ham ko'tarilishi mumkin. Me'yorida ortiqcha issiqlik, ko'p hollarda, inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatishi va ba'zida esa issiq yoki oftob urishiga olib kelishi mumkin.

Issiq urishi – organizmning qizib ketishi bo'lib, bunda tana harorati +37,7°C da yuqori bo'ladi va turli sabablarga ko'ra organizm sog'lom haroratiga qayta olmaydi. Issiq urishi birdaniga rivojlanmaydi. Uning darakchilari mavjud bo'lib, buni insonning termik sillasi qurishi deyiladi va organizm bunda termoregulyatsiya buzilganini va zudlik bilan yordam kerakligi haqida xabar beradi.

Oftob urishi – issiq urishining bir qismi bo'lib, bevosita quyosh nuri ta'sirida, ya'ni bosh kiyimsiz quyoshning tik tushuvchi nuri ostida uzoq vaqt davomida turish oqibatida bosh miyaning qizib ketishidir.

Oftob urganda, miyada hayotiy muhim bo'lgan markazlarning ishdan chiqishi yuz beradi. Oftob urishi odatda to'satdan boshlanadi. Holdan toyish, birdaniga hushdan ketish, inson yuzi qizarib, nafas olishi, yurak urishi tezlashadi, bosh aylanishi va og'rishi, ko'ngil aynishi, terining qizarishi kuzatiladi.

Odatda, inson tanasida jismoniy harakat natijasida issiqlik hosil bo'ladi, o'rta og'irlikdagi mehnat bilan shug'ullanganda, soatiga 300 kilokaloriya atrofida, og'ir ishlar bilan mashg'ul bo'lganda esa 600 kilokaloriya va undan yuqori miqdorda issiqlik ishlab chiqaradi. Tanada issiqlik almashinuvi, teri orqali suvning parlanishi sababli mo'tadillashib turadi. Ko'p terlash oqibatida inson kun davomida 10 litrgacha suv yo'qotishi mumkin. Suv bilan birgalikda ko'p miqdorda tuzlar, vitaminlar va boshqa organizm uchun kerakli bo'lgan moddalar parlanib ketadi. Havo harorati 40–45 darajaga yetganda, inson tanasidan 2 soat davomida 10 grammgacha natriy xlorid tuzi chiqib ketadi. Suv va tuzlarning yo'qotilishi, qonning quyuqlashishiga olib keladi va natijada esa markaziy asab tizimi turli bo'limlarining faoliyati buzilishiga sabab bo'ladi. Og'ir hollarda esa hayotiy muhim bo'lgan markazlarning ishdan chiqishi tufayli o'lim yuz berishi mumkin.

Insonlarni issiq yoki oftob urishi asosan havo haroratining 35 va undan yuqori darajaga ko'tarilganda ro'y beradi. Issiq urishi asta-sekin rivojlanib, jazirama issiq sharoitida belgilangan me'yorlarni buzgan holda og'ir jismoniy harakat bilan shug'ullanish oqibatida kelib chiqadi. Bundan tashqari, faslga mos bo'lmagan kiyim kiyish, vaqtida ovqatlanmaslik va tanada terlash sababli hosil bo'lgan chanqoqni vaqtida qondirmaslik issiq urishiga olib keluvchi omillardan hisoblanadi.

Yozning jazirama issig'i, ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklari hamda semizlikka chalingan insonlar salomatligiga ta'sir qilishi va ulardagi surunkali kechayotgan kasalliklarning avj olishiga sabab bo'lishi mumkin.

Birinchi yordamni qanday ko'rsatish zarur? Jabrlangan shaxsni soya-salqin joyga olib o'tib, gorizontal holatda yotqiziladi, siqib turgan kiyimlari yechiladi va boshiga sovuq kompress qo'yib, badanini sovuq suvda ho'llangan sochiq bilan artiladi, imkon darajasida ko'proq suyuqlik ichiriladi. Hushini yo'qotgan taqdirda nashatir spirtini hidlatib, hushiga keltiriladi va tez fursatda tibbiyot punktiga yoki eng yaqin davolash muassasasiga yetkaziladi.

#### Issiq yoki oftob urishining oldini olish uchun:

- ochiq havoda bajariladigan jismoniy yuklamali mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmiga tashkillashtirish;
- shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- shaxsiy tarkib tashqarida ust-bosh kiyimsiz yurmasligi;
- oftobdan kuyishning oldini olish uchun maxsus oftobdan saqlovchi kremlardan foydalanish;
- taomnomaga yengil hazm bo'ladigan taomlar, meva va sabzavotlarni kiritish, tushlikdagi ikkinchi ovqatni kunning salqin vaqtiga o'tkazish;
- ko'proq suyuqlik iste'mol qilish (3-5 litrgacha) lozim.

#### Tananing suvsizlanishi va qizib ketishidan saqlovchi chanqoqbosdi ichimliklar:

1. Limonli choy – dastlab tanani biroz qizdirishi, so'ng kuchli terlatishi bilan ancha vaqtgacha tanani issiqlanishdan saqlaydi, shuningdek, organizmning suv va tuz balansini saqlashda yordam beradi.

2. Ko'k choy chanqoqni yaxshi qondiradi, o'zidagi foydali moddalar hisobiga insonga kuch bag'ishlaydi, bundan tashqari, ko'k choy kuchli bakteriotsid xususiyatiga ega bo'lib, oshqozon-ichak yo'lidagi kasallik qo'zg'atuvchi mikroblarni o'ldiradi, dizenteriya va boshqa yuqumli oshqozon-ichak kasalliklaridan himoya qiladi.

3. Tabiiy meva sharbati – meva va sabzavotlardan olinadigan shirin suyuqlik, meva suvi. Meva sharbati qaysi mevadan tayyorlanganligiga qarab shifobaxsh va organizmdan yo'qotilgan suyuqlik o'rnini bosuvchi xususiyatga ega.

4. Ayron yozning issiq kunlarida chanqoq bosish uchun ayni muddaodir. Unda ko'plab foydali va shifobaxsh xususiyatlar bor. Bir stakan ayron bir likopcha sho'rva ichgandek to'qlik hissini beradi.

Jazirama issiq sharoitlarda qanday kiyinish kerak? Issiq sharoitda kiyim matosi havoni yaxshi o'tkazadigan, terni yaxshi shimadigan, quyosh nurini qaytaradigan va teriga o'tishiga yo'l qo'ymaydigan, paxtali matodan keng tikilgan bo'lishi lozim.

Shuningdek, kiyim tanlashda matoning rangiga ham e'tibor berish kerak. Qora va jigarrang matodan tikilgan kiyimlar o'ziga issiqlik va quyosh nurini ko'p tortadi, oq rangli gazmoldan tikilgan kiyimlar esa issiq va quyosh nurini qaytarish xususiyatiga ega.

#### Issiq mavsumda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Mashg'ulotlar jadvaliga to'liq rioya qilish, tushlikdan oldin va keyin 30 daqiqalik dam olish uchun vaqt ajratish, tushlikdan so'ng jismoniy zo'riqishni talab etadigan mashg'ulotlarni cheklash.

2. Jazirama issiqda kunlik taomnoma ratsionida yengil hazm bo'ladigan suyuq taomlar, qatiq, sut mahsulotlari, meva va sabzavotlar bo'lishiga, yuqori kalloriyali ovqatlarni kunning salqin vaqtiga belgilanishi.

3. Yog'li taomlar hamda shirinliklarni kamroq iste'mol qilish talab etiladi, chunki ular tanada energiya hosil bo'lishini kuchaytiradi va tananing qizib ketishiga sabab bo'ladi.

4. Tuzlangan va achchiq mahsulotlarni chegaralash.

5. Chanqashga sabrli bo'lish kerak, degan fikr mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Qaynatilgan suv yoki choyni o'z vaqtida va doimiy ravishda tayyorlanishini ta'minlash, barcha harbiy xizmatchilarning shaxsiy suvdonlari bo'lishi va ularni o'z vaqtida qaynatilgan suv yoki choy bilan to'ldirish, chanqoqni qondirish uchun esa har 1-2 soatda 1-2 stakandan qaynatilgan suv yoki choy ichish tavsiya etiladi.

6. Shaxsiy tarkib bilan jismoniy mashg'ulotlar o'tkazishda ularning jismoniy sifatlariga e'tibor berish, dala-o'quv maydonlariga mashg'ulot o'tish uchun chiqish oldidan shaxsiy tarkibni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga kerakli ko'rsatmalar berish. Piyoda chiqish vaqtida quyosh nuridan himoyalangan joylarda 10–15 daqiqali qisqa dam olishni tashkil qilish lozim.

7. Shaxsiy tarkibning mashg'ulotlar orasida cho'milishi uchun harbiy shaharchalar va dala-o'quv maydonlarida yozgi dushlar tashkil qilish talab etiladi.

Havo haroratining muntazam ko'tarilishi organizmning moslashuv jarayonini izdan chiqarishi va tananing qizib ketishi natijasida yuzaga keladigan kasallik holatlarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan maslahatlarga amal qilsak, o'zimiz, xizmatdoshlarimiz va oila a'zolarimizning salomatligini saqlashda o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

**Tibbiy xizmat mayori**  
**M. SHAROPOV,**  
**Mudofaa vazirligi**  
**Sanitariya-epidemiologiya nazorati**  
**markazi bo'lim mutaxassisi**



## # Turmush chorraxasi

# БЕМИННАТ

## ЁРДАМ

(воқеий ҳикоя)

Абдуҳошим ака болалари билан хайр-хўшлашиб йўлга отлангунча шом яқинлашиб қолди.

– Эрталаб йўлга чиқсангиз яхши бўларди-да, дада, – билганидан қолмайдиган отасига умидвор термилди Отабек. – Ҳозир қоронғи тушади, тоғ йўлларида водийга етиб боришнинг ўзи бўлмайди.

– Довонда тун билан ҳаёт қайнайди. Машиналар кундузгидан камроқ бўлади, бемалол кетаман. Шундоғам уч кун қолиб кетдим. Кўряпсан-ку, аянг телефон қилишни бошлади, бир дунё муаммоларни йиғиб қўйган бўлса керак.

– Сизнинг ёшингизда кундузи кетган маъқул-да, – хавотири аримасди ўғилнинг.

– Отангни қарига чиқариб қўйдингми, ўғлим, ҳали бақувватман, кўрқма! – кулди Абдуҳошим ака. – Ҳайдовчиликда неча йиллик тажрибам бор. Фақат ёнимда бирорта ҳамроҳ бўлганида яхши эди, ҳангомалашиб кетардим. Балки, йўл юзада йўловчи учраб қолар, кўраман...

Абдуҳошим ака шаҳару қишлоқларни ортда қолдириб, довонга етиб борганида тун кўрпаси борлиқни қоплаганди. «Йўлда шерик учрамагани чакки бўлди-да, – хаёлидан ўтказди

у. – суҳбатлашиб кетардим. Йўлга чиқсанг, йўлдош билан чиқ, дилга яқин сирдош билан чиқ, деб бежиз айтишмаган. Манзилга қандай етиб борганингни билмай қоласан. Аммо аксига олиб, бирорта ҳамроҳ учрамади». Абдуҳошим ака магнитофон тугмасини босди. Ўзи севган хонанда Шерали Жўраевнинг қўшиғи янгради:

*«Мен ишқ элининг нолаи  
афғонида куйдим,  
Кўнгил уйининг оташи  
армонида куйдим...»*

Абдуҳошим аканинг беихтиёр кайфияти кўтарилди. Ҳа, соғлиққа, тирикликка нима етсин. Етмишга яқинлашаётган бўлса-да, ғайрати ёшларникидан қолишмайди, машина бошқариш жону дили, хотинини ёнига ўтқазиб, бозор-ўчар, тўй-маъракалардан қолмайди. Тенг-тўшлари билан тез-тез дам олишларга чиқиб туради. Пойтахтда истиқомат қилаётган ўғлини кўриб ҳам бежиз келгани йўқ. Набиралари мактабдан таътилга чиқиб, қишлоққа дам олгани борди, ўн кундан зиёд бобо-бувисининг бағрида бўлди. Таътидан қайтишларида қишлоқнинг ноз-неъматлари билан машинани тўлдириб, ота-онаси бағрига кўнгли хотиржам ташлаб кетяпти.

Бироқ ўғли айтганидек, кечаси юришнинг ноқулай томонлари ҳам кўп-да. Баъзида беғам ҳайдовчиларнинг эътиборсизлиги сабаб қарама-қарши томондан келаётган машиналар чироғининг узоқни ёритадиган ўткир нури кўзингни қамаштиради. Абдуҳошим ака

турли ўйлар гирдобиди йўлнинг ярмини ортда қолдирди. Шунда машинанинг бир томон баллони йўлда ҳосил бўлган чуқурчага илқис тушиб чиқди-ю, мувозанатни йўқотди. Тажрибали ҳайдовчи машина баллони ёрилганини дарҳол тушуниб етди ва бир амаллаб, йўл четига олиб чиқиб тўхтатди. «Баллон ишдан чиқибди-ку! – уҳ тортди Абдуҳошим ака. – Қўшимча баллон уйда қолган. Довоннинг энг тепасига чиқанда ҳам шундай кўнгилсизлик бўладими?»

Отахон ёрдам сўраб, йўловчи машиналарни тўхтата бошлади. Тепа яхши ёритилмагани сабаб улар Абдуҳошим аканинг ёши улғлигини, балки, англамас, балки, эътибор бермас, ҳарқалай ёнгинасидан шувиллаб ўтиб кетарди. Тоғли ҳудуд анчайин аёз бўлиб, ярим соатга яқин йўловчи машиналардан нажот кутган отахоннинг эти увиша бошлади. «Машинанинг ичида қолиб, тонг ёришишни кутсам-микан?» ўйлади у. Хаёли охирига етмай, машиналардан бири тўхтаб, ичидан гавдали йигит тушиб келди.

– Нима гап, отахон? – саломалиқдан сўнг вазиятни сўради.

– Кўрмайсанми, ўғлим, ҳеч бундай ҳолатга тушмагандим. Қоронғи панд бердим, йўлдаги чуқурга машина баллони тушиб, тешилиб ўтирибди-да. Акс бўлиб, қўшимча баллон уйда қолганди.

– Сиқилманг, отахон, менда «запас» баллон бор! Ҳозир ўзим машинангизга ўрнатиб бераман. Туришингиздан ташқарида узоқ қолгансиз чоғи, совқотганга ўхшайсиз. Менинг машинада дам олиб туринг...

Йигит эпчиллик ила ишга киришиб кетди. Ёрилган баллонни ечиб, машинасидаги қўшимча баллонни олиб, Абдуҳошим аканинг машинасига ўрнатди.

– Тойчоғингиз одек, – машинасидан сув олиб, қўлини ювар экан, нуруний инсонга кўрсатган ёрдамидан мамнун жилмайди йигит. – Қани, бир юргизиб кўринг-чи!

– Умрингдан барака топ, болам! – Абдуҳошим ака машинасига ўт олдириб, силжитиб кўрди. – Ҳаммаси жойида, ота-онанга раҳмат! Отинг нима эди, танишмабмиз-ку, ўғлим?

– Исми Носиржон, – машинасини юргизаркан, жавоб қайтарди йигит. – Бу ёғига эҳтиёт бўлинг!

– Манзилнинг айтмадинг-ку? – Дуо қилсангиз бўлгани, хайр, отахон, яхши етиб олинг, – йигит қўлини мамнун силкитганча, машинасини юргизиб кетди.

«Доимо Аллоҳ назарида, эл назарида бўлгин!..» Абдуҳошим аканинг ортидан дуо қиларкан, ғира-шира ёруғликда машинасининг рақами ёдида қолди.

Абдуҳошим ака оиласи бағрига эсон-омон етиб олгач, бир ойдан зиёд беморликни бошидан ўтказди, даволанди. Бир хаёли машинасига ўрнатилган баллонда, тўғрироғи, уни эгасига қайтаришда. Айниқса, кекса одам қарздорликдан кўрқади.

– Дада, машинадаги баллонни ечиб, уйдаги қўшимча баллонни ўрнатдим, – отасининг кўнглини тинчлантирди кенжа ўғли Жонибек. – Сизга ёрдам берган йигитнинг баллонини тозалаб, мойлаб қўйдим. Уни топсак бўлди, дарҳол олиб бориб берамиз.

– Йўқ, худди шундай янги баллон сотиб олиб кел, ўшани берамиз.

Фақат йигитни тезроқ топиш керак.

– Нима десангиз шу, дада, сиз соғлиғингиз ҳақида ўйланг. Аммо сиз айтган рақамдаги машинани ҳеч қаердан топа олмаёпмиз. Топилганлари бутунлай бошқа инсонлар бўлиб чиқяпти, исмлари ҳам бошқача. Наманган, Андижондаги ёр-биродарлардан ҳам ёрдам сўрадим. Ички ишларда ишлайдиган танишларидан суриштиришяпти.

– Яхши, бундай инсонларнинг ёрдамини унутмаслик керак, – ўғлига насиҳат оҳангида таъкидлади Абдуҳошим ака. – Ёки машина рақамида адашдиммикан а? Кечаси, қоронғи эди-да, – ўйчан қўшиб қўйди у.

– Бу ҳақда кўп ўйланг, албатта, топилади. Кўриниши эсингизда қолгандир.

– Албатта! Ёши ўттизлардан ошган, келишган, шахдам, чиройли йигит эди. У туришидан масъулиятли соҳада ишласа керак, бу аниқ. Кўрсам, дарров танийман...

Кунлар ойларга уланиб, орадан олти ой ўтди. Бироқ отахонга беминнат ёрдам берган йигит ҳақида ҳеч қандай маълумот топилмади. Лекин эзгу ишда ортга чекинмайдиган Абдуҳошим ака умидини узмади, Носиржонни излашда давом этди. Ва ниҳоят...

– Дада, сизни ҳозир бир жойга олиб бораман! – эрталабки но-нуштадан сўнг Абдуҳошим акага сирли жилмайди Жонибек. – Манзил узоқроқ, аммо борсангиз, албатта, хурсанд бўласиз.

– Тинчликми, ўғлим, қаерга? – «Сюрприз», борганда кўрасиз. Чиройли кийиниб олсангиз бўлгани.

– Онанг ҳам борадими? – Бирга борсаларинг яна ҳам яхши.

– «Юрган дарё, ўтирган бўйра», дейдилар, онаси, – хотинига қаради Абдуҳошим ака. – Қани, тайёрлан, ўғлинг бизни бир айлантриб келсин! «Сюрприз»ини кўрайлик-чи.

Атрофни томоша қилиб кетаётган отахоннинг кайфияти кўтаринки. Довондаги воқеадан сўнг шамоллаш сабаб жиддийгина оғриб олган Абдуҳошим ака кўпдан буён узоққа чиқмаганди. Мана, дардларни ортда қолдириб, аввалгидек соғлом ва тетик, ҳаётдан завқ олиб йўлда кетяпти. «Ҳаёт ажойиб-да! – кўнглидан ўтказди отахон. – Болаларингни ёшлигида эркалатиб, кўнглига қараб, катта қиласан. Қайтар дунё, деганларидек, болаларинг энди «сюрприз»лар билан сенинг кўнглинга қарайди...»

Улар бир соатдан зиёд йўл юришганидан сўнг Жонибек машинасини ҳарбий қисм яқинида тўхтатди. «Ҳозир келаман!» деди-ю, ҳарбий қисмининг кириш дарвозаси томон юрди. Кўп ўтмай, ҳарбий либосдаги йигит билан қайтиб чиқди ва Абдуҳошим ака томонга кела бошлади. Бу ҳолатни синчиклаб кузатиб турган отахон аста машинадан тушди.

– Буйруғингизга биноан, майор Носиржон Султонов хузурингизга келди! – жилмайган қўйи Абдуҳошим акага ҳарбийчасига салом берди довондаги йигит.

– Билгандим, оддий йигит эмаслигини, билгандим, – Носиржонга кучоғини очди Абдуҳошим ака...

Зулфия ЮНУСОВА,  
«Vatanparvar»



## # Bugunning gapi

## «ЎРГИМЧАК ТҮРИ»

## ЁХУД ИНТЕРНЕТСИЗ ЯШАЙ ОЛАСИЗМИ?



Барчамизнинг қўлимизда энг сўнгги русумдаги бўлмаса-да, ҳар ҳолда, Интернет тармоғидан фойдаланиш мумкин бўлган қурилмаларимиз бор. Туну кун 24 соатдан иборат деб оладиган бўлсак, бизнинг 18-22 соат вақтимиз ана шу кичкинагина қурилма ва ичидаги катта бир «ҳаёт»га қаттиқ боғланиб қолган. Тонгни ҳам телефон аппарати билан кутиб оламиз, осойишта тунимизга ҳам телефонимиз йўлдош. Эрта тонгдан онам телефон қилади: «Қизим, ёмғир ёғаркан! Иссиқроқ кийиниб ол!» «Қаердан билдингиз?» деб сўрасам, «Интернетдан», деган жавобни оламан. Укам кечқурун мени огоҳлантирган бўлади: «Опа, эртага шаҳарга чиқмай қўяверинг!» Укамнинг хавотирли сўздан ҳайрон бўламан. «Магнит бўрони ҳақида гапиришяпти». Бу сўздан даҳшатга тушаману, лекин тинч ва осойишта ҳаётимга шукрона айтиб, бу хабар ёлғон эканлигини укамга уқтираман. Жигарим-да, мендан, жиянидан хавотирланади. Ахборот макони-га айланган бу Интернет тармоғи минг километри масофалар ҳақида рости ёлғон сўзлардан эртақ очиб, одамларни кундан кунга ўзига асир қилиб боряпти. Қизиғ-а, биз қўлимиздаги қурилмага итоат эта бошладик. Унга ишонамиз. Усиз яшай олмаймиз. Ҳатто ёнимиздаги султонимиз, жонимиздан азиз фарзандимизга ажрата олмаган вақтимизнинг кўпини қурилмамиздаги «катта ҳаёт»га совураемиз. Умримиз эса ўтиб бораверади.

Кундалик дафтарим бор. Этиборингизга ўтган йили Мустақиллик байрами муносабати билан берилган дам олиш кунларидан кейинги хотирамни ҳавола эт-

моқчиман. Ўшанда, ишонасизми, беш кунни интернетсиз, телефон аппаратисиз жуда мароқли ўтказгандим...

Беш кун ичида дадаси иккимиз бир-биримизни янада яхшироқ таний бошлабмиз. Ҳа, рост, китоблар ҳақида гаплашдик. Биргалашиб овқат тайёрладик. Нукус шаҳри бўйлаб саёҳатга чиқдик. Қизимиз билан шуғулландик. Хуллас, интернетсиз ҳаёт яхшироқ эканини англадик.

Турмуш ўртоғим кеча: «Сен ҳам мен билан гаплашар экансан-ку», деб мени хаёлга толдирди. Демак, мен интернет билан бўлиб, улар билан гаплашмай қўйган эканман. «Иш, интернет хабарлари шу қадар мени оиламдан олислатиб юбордими?» деб ўзимни ёмон кўриб кетдим. Бу хатоимни бошқа такрорламасликка қарор қилдим. Турмуш ўртоғим ва қизим менинг меҳримни ҳис қилаётганларидан бери беш кун ичида менга янада қаттиқ боғланиб қолишди.

Раҳмат сенга, беш кунлик дам олиш!

Яхшиямки, интернетсиз беш кунни ўтказибмиз.

Сизларга ҳам тавсиям: ҳеч бўлмаса, бир кунни интернетсиз ўтказиб кўринг! Ҳаёт кўзингизга янада жозибали, қизиқарли кўрина бошлайди!»

Интернетнинг фойдали томонлари кўп, аслида. Мазали таомларни YouTube тармоғидаги ошпазларнинг саҳифаларидан ўрганаман. Гоҳида жудаям ўқигим келган китобнинг электрон шаклини интернетдан юклаб оламан. Фойдали маслаҳатларга бой Интернет тармоғи менинг дўстим, дугонам, маслаҳатгўйим. Facebook ижтимоий тармоғида ҳам рўйхатдан ўтганман. Жуда кўп

инсонлар билан дўстлашганман. Устоз сифатида ардоқлайдиган инсонларим бор. Ўз саҳифаларимни эса кундалик дафтар мисол юритаман. Санъат, маданият, адабиёт ва ҳарбий мавзулардаги қизиқарли постларни дўстларимга улашаман. Лекин ҳали ўзим учун зиён бўладиган бирор ҳолатга дуч келганимча йўқ. Ва бунга йўл қўймайман ҳам. Чунки менда ўзимни назорат қила оладиган куч бор.

Ҳозир оилаларнинг кўпи Wi-Fi дан фойдаланади. Замонни қарангки, бугун биз илғамаган электр кучлари телевизорлар билан «тил бириктириб», экранда инсталланган мавзуларда киноларни намойиш эта бошлади, ашула эшитамиз, рақс ўрганаемиз, фитнес машқларини бажарамиз. Ақлли телевизор қаршисида болакай маза қилиб мультфильм томоша қилиши ҳам мумкин. Бола эътиборсизликдан хархаша қилади. Оналарга эса ўша пайт «ақлли телевизор» ёки телефон аппаратлари ёрдамга келади. «Болангиз бирам ақлли, уйда жимгина телевизор кўриб ўтиради-я», деган қўшнингизнинг гапидан хурсанд бўларсиз, эҳтимол.

Бир хонадонда меҳмон бўлдим. Онанинг икки фарзанди, яна икки овсиннинг тўрт боласи телевизор қаршисида михланиб қолишган. Она нариги хонада ўз сериалларини кўриш билан банд. Ҳеч кимга халал бергим келмади. Кузатдим. Оиладаги муҳитни таҳлил қилган бўлдим. Болакайлар томоша қилаётган мультфильм, ёки янги бир йўналишдаги санъат тури, хуллас, номини билмайман, жараёнда анимациялардан ҳам фойдаланилган, одамлар ҳам иштирок этишяпти. Мавзу эса бизда хўрозқанд дейиларди, замонавий тилда эса «чупа-чупс» рекламаси. Уни қандай ейиш мумкинлигини болаларга маҳоратли актёрлар турли чиқишлар орқали кўрсатиб беришяпти. Ранглар хилма-хил. Йигитларнинг қулоғида турли ранглардан иборат сирға, бурнига ҳам нимадир тақиб олган. Қизларнинг сочи эса турфа рангларда жиллаганиб турибди. Хуллас, бизнинг ўзбекона тарбияга сираям тўғри келмайдиган ажнабий одамларнинг бир қиёфаси. Табиийки, бу менга ёқмади. Шунинг учун болаларга ўзим билганча тарбиявий аҳамиятга эга мультфильмларни

кўришни маслаҳат бердим. Болалар эса, афсуски, мен таклиф қилган мультфильмларни кўришни исташмади. Биз болалик чоғларимизда «Нонни босган қиз», «Зумрад ва Қиммат», «Том ва Жерри» ва шу каби мультқаҳрамонлар билан улғайган эдик. Аммо ҳозир...

Интернет ҳам вақтинчалик бўлиши мумкин. Орадан неча йиллар ўтар, балки, асрлар. Аммо вазият бундай тус олаверса, ўртада катта йўқотишлар бўлиши ҳеч гапмас.

Ҳа, ўтган аср охирларида кўз очган интернетдан олдин неча йиллар давомида инсонлар китоб мутулааси билан шуғулланишган. Бир халқнинг халқ бўлишида, қалбларида ватанпарварлик туйғулари мавжланиб, Ватаннинг Ватан бўлишида интернетнинг сираям алоқаси бўлмаган. Ҳозир-чи, ватанфурушлар, разил кимсалар, «оммавий маданият» тарғибчилари, дин пешвосиман, дея бонг ураётган террорчилар интернетни уя қилиб олганларича, қанчадан-қанча инсонлар ҳаётини остин-устун қилиб юборишяпти. Йигит ва қизларнинг юзидаги парда интернет орқали очилиб, ёш умрлар дор тагида хазон бўляпти. Сўнгги вақтларда авж олган кибержиноятларнинг асосида ҳам рақамли технологиянинг ривожланиб бораётгани сабаб, аслида.

Бунга сабаб нима? Сабаб битта: интернет фойдаланувчилари ундан фойдаланиш маданиятига эга эмас. Кимнингдир руҳий ҳолати яхши бўлмаслиги мумкин, яна кимнингдир иродаси суст. Шундай одамлар ҳам борки, содда, самимий. Бу ҳаётда ҳар бир нарса ўлчовли, тарози паллалари каби доимий ҳаракатда. Интернет ҳам ана шундай. Гоҳ яхшиликка хизмат қилади, гоҳ ёвузликка қарши курашолмай энгилади. Ҳаётнинг фалсафаси эса эзгулик ғояларига суғорилган.

Унутманг, фарзандингиз келажакдаги ўз қўлингизда. Шундай экан, унинг интернет тузоғига илинишига йўл қўйманг, эътиборли бўлинг, дўстингиз, укангиз, синглингиз, турмуш ўртоғингизни интернетдан чалғитиш мумкин бўлган суҳбатларга чорланг. Зеро, сўнгги пушаймон ўзингизга душман бўлиб қолмасин!

**Шоҳиста АБДУРАҲМОНОВА,**  
**ШҲҲО матбуот**  
**хизмати ходими**

# Jahon adabiyoti

# МАҲОРАТ

Мисс Поузи Кэррингтон Крэнберри Корнерз кишлоғида дунёга келганди. Ўшанда унинг оти Поузи Боггуз эди. 18 ёшида у ерни тарк этган, катта шаҳардаги театрда актриса бўлиб ишга кирган ва шу ерда ўзига Кэррингтон фамилиясини олганди. Энди мисс Кэррингтоннинг довуғи дунёга таралган.



О' ГЕНРИ

У яқин кунларда кишлок ҳаётдан ҳикоя қилувчи бир пьесада бош ролни ижро этиши лозим. Кўплаб ёш актёрлар бу пьесада Кэррингтоннинг сахнадаги ҳамкори бўлиш учун ҳар нарсага тайёр. Улар орасида Хайсмит исмли ёш йигит ҳам бор. У театр раҳбари мистер Гольдштейн ҳузурига маслаҳат учун борганида, шундай жавоб олди:

– Азизим, бу ролни маромига етказиб ижро эта олсанг, марҳамат! Аммо барибир мисс Кэррингтоннинг розилигини олишинг керак бўлади. У менинг таклифимга қулоқ осмайди. Ҳозиргача бу ролни ўйнашни истаган қанчадан-қанча йигитларни рад этди. Айтишича, ҳар томонлама ўзига муносиб ҳамкор топмагунча, сахнага қадам босмасмиш. Биласан, у қиз кишлокда ўсган. Шунинг учун сочларига хас-хашак илаштирган шаҳарлик олифталарнинг сахнага чиқиб, «мен кишлок боласиман», дейиши билан лаққа тушиб қолмайди. Ҳа, йигитча, агар мисс Кэррингтонни ишонтириб, унинг кўнглига йўл тополсанг, ошигинг олчи!

– Рухсат берсангиз, уриниб кўрсам, – деди йигит. – Лекин бироз вақт ичида мен ўз режамни сир сақлаб туришимга тўғри келади.

Эртаси кунлик Хайсмит поездга ўтириб, Крэнберри кишлоғи томон йўлга тушди. Бу узоқ, кичкина кишлокда йигит уч кун қолиб кетди. Боггузлар оиласи ва қўшнилари ҳақида ҳамма нарсани муфассал ўрганганидан кейин шаҳарга қайтди.

Мисс Поузи Кэррингтон оқшомларни актёрлар тўпланадиган кичик бир ресторанда ўтказишга одатланган эди. Бир оқшом Мисс Поузи ўз дўстлари даврасида тамадди қилиб ўтираркан,

ресторанга тортинчоқ, соддагина бир йигитча кириб келди. Ёрқин шуълалар ва одамлар уни бироз шошириб қўйгани сезилиб турарди. У стулларнинг бирини нарироқ суриб, бошқа бирига ўтирди, официант унга яқинлашганида, хиёл қизарди. Хизматчининг саволомуз қарашларига жавобан, «менга бир бокал пиво опкелинг», деди. У ён-верига боқаркан, мисс Кэррингтонни кўриши билан юзида порлоқ табассум ёйилди ва унинг столи тараф юрди.

– Яхшимисан, мисс Поузи, – деди у, – мени танидингми? Билли Саммерсман. Ён қўшнилариңг Саммерсларни эсладингми? Сен Крэнберри Корнерзни тарк этганиңдан бери анча улғайибсан. Лекин биз сени унутганимиз йўқ. Элиза Пэрри сени шаҳардан қидириб топишимни сўраганди. Элиза Пэрри ҳозир Стелфильдга эрга теккан. Унинг айтишича...

– Ростданми? – мисс Кэррингтон хурсандчиликдан шошиб, унинг гапини бўлди. – Элиза Пэрри эрга тегдимми? У роса семиз ва хунук қиз эди-ку!

– Июнда тўйи бўлди, – чақимчиларга хос айёрона кулимсиради йигит. – Қари миссис Блидерз уйини капитан Спунерга сотди. Ботерзларнинг энг кичкина қизи бир мусика ўқитувчисига қўшилиб қочиб кетди.

– Шунақами, – деди Поузи ҳаяжонини яширолмай. – Яхши, дўстларим, бир-икки дақиқага менга ижозат берасизлар. Бу менинг эски дўстим, исми... исминг нима эди? Ҳа, мистер Саммерс. Бу мистер Гольдштейн, бу эса мистер Рикетс! Узр, Билл, сен бу ёққа юр! Қани, гапир, кишлоғимизда яна нима гаплар?

У йигитни бурчакдаги бўш столга таклиф қилди. Унинг тоза, мовий кўзларига хаёлчан тикилди.

– Лекин сени ҳечам эслолмаяпман! Билл Саммерс! Қизик, мен Саммерсларнинг ҳаммасини яхши танирдим. Сенинг ҳам юзинг менга кимнидир эслатяпти, лекин... Жин урсин! Кишлоғимиз унча ўзгармагандир? Бизнинг уйдагиларни ҳам кўрдингми? Яхши юришибдимми?

Хайсмит ўзининг актёрлик маҳоратини намойиш этадиган пайт етганини англаб, бутун истеъдодини кўрсатишга тиришди:

– Икки-уч кун аввал ота-онанинг ёнида эдим. Яхши юришибди. Сенга салом деб юборишди. Қишлоғимиз сен айтгандек унча ўзгармаган. Лекин барибир аввалгидек эмас, албатта!

– Онам қалай?

– Мен борганимда хамир қораётган экан. Менга қуймоқ пишириб берди. Олдингига қараганда бироз қариган. Мисс Поузи, аммо уйларинг ҳечам ўзгармаган. Онанг билан анча гаплашиб ўтирдик. «Қизим мана шу эшиқдан чиқиб кетганича қайтиб келгани йўқ. Мана, кўряпсанми, хув ўша сўқмоқ бўйлаб кетганди. Лекин юрагим аниқ сезиб турибди, у кекса онасини эсидан чиқариши мумкин эмас. Албатта, худди шу йўлдан қайтиб келади, манави эшиқдан қира солиб, менинг бағримга отилади, қизим жуда ақлли, меҳрибон», деди.

Мисс Поузининг юзига алланечук безовталиқ ҳисси ёйилди. Бироз жим қолди.

– Яхши, – деди бироздан сўнг маъюс хўрсиниб, – шаҳардан кетишингдан аввал менга учраб кетгин. Анави, рўпарадаги меҳмонхонада тураман.

У чиқиб кетгач, Хайсмит ўша гримдаги қиёфада Гольдштейнга юзланди:

– Қалай, ғоямга гап йўғ-а! – дея кулимсиради. – Энди роль меники бўлади, тўғрими? Кичик хоним бу найрангни тушуниб етмади.

– Мен сизларнинг гапингизни эшитмадим, – деди Гольдштейн. – Аммо грим ва ижро мукамал чиқибди. Омад ёр бўлсин! Эртанинг ўзида унинг ёнига бориб, ўзинг ҳақингдаги унинг фикрини билсанг, яхши бўларди.

Эртаси куни соат 11.45 да Хайсмит сўнги урфга мувофиқ башанг кийиниб, айтилган меҳмонхонага келди-да, ўзининг ташрифномасини мисс Поузи Кэррингтонга жўнатди. Кейин меҳмонхона маъмурлари уни юқори қаватга ўтказиб юборишди. Йигитни актрисанинг француз хизматкори қарши олди.

– Сиздан узр сўрамоқчиман, – деди хизматчи, – аммо барибир ҳақиқатни ҳаммага етказишим керак. Мисс Кэррингтон сахна билан боғлиқ барча ҳойу ҳавасларидан, умуман, санъатдан воз кечиб, ўз кишлоғига, отиям нимаиди, Ҳа, Крэнберри Корнерзга бутунлай кўчиб кетди.

Рустам ЖАББОРОВ  
таржимаси

#



Пауло КОЭЛО

# БАХТ КАЛИТИ

Бир савдогар ўғлини энг катта донишманднинг ҳузурига бахтнинг калити – сирини билиб келиш учун жўнатибди. Йигит сахрода қирқ кун йўл юрибди ва ниҳоят, улкан тоғнинг тепасида ҳаддан зиёд муҳташам бир қасрни кўрибди. У қидирган Донишманд шу қасрда яшар экан.

Кутганига зид ўлароқ, қаср авлиё одамнинг хилват гўшасига ўхшамасди. Унинг ичи одамга тўла эди: савдогарлар молларини мақтаб ҳар томон югуришар, бурчак-бурчакларда одамлар тўп-тўп бўлиб гурунглашар, созандаларнинг кичик бир дастаси қандайдир нафис куйни

ижро этар, залнинг ўртасида эса каттакон стол, унинг устига дастурхон тузалган, дастурхон эса бу юртнинг энг ноёб ва тансиқ таомлари, бағоят хуштаъм ноз-неъматларига тўла эди.

Донишманд шошмасдан меҳмонлар билан бирма-бир кўришиб чиқди. Йигит навбати келишини икки соатча кутиб қолди.

Ниҳоят, Донишманд йигитнинг нима мақсадда келганини билди, лекин ҳозир унга бахтнинг калити – сирини мақсад эканини тушунтириб беришга вақти йўқ эканини айтди. Донишманд йигитга чиқиб қасрни томоша қилишни ва икки соатлардан кейин бу ерга – залга қайтиб келишни буюрди.

«Сендан яна бир илтимосим бор, – деди у йигитга ичига икки томчи ёғ солинган чой қошиғини узатиб. – Бу қошиқни ўзинг билан олиб юр, фақат эҳтиёт бўл, ичидаги ёғи тўкилиб кетмасин».

Йигит қошиқдан кўзини узмаган ҳолда қасрни айланди, унинг зиналаридан тепага кўтарилди, пастга

тушди ва ниҳоят, икки соат ўтгач, Донишманднинг рўпарасида яна намоён бўлди.

«Хўш, қалай, – деб сўз қотди Донишманд. – Кошонадаги форс гиламлари сенга манзур бўлдимми? Бениҳоя миришкор боғбонлар ўн йилдан бери кўзининг оқу қорасидек авайлаб парвариш қилаётган боғдаги гуллар ва дарахтлар ёқдимми? Кутубхонадаги қадимий китоблар ва нодир қўлёзмалар-чи?»

Хижолатдан қизариб кетган йигит буларнинг ҳеч қайсисини кўрмаганини тан олди, негаки, унинг бутун диққат-эҳтибори Донишманд унга ишониб топширган икки томчи ёғда бўлган экан.

«Бор, орқанга қайт, менинг уйимдаги ҳамма мўъжизаларни кўриб кел, – дебди Донишманд. – Одам қаерда ва қандай яшашини билмай туриб, унга ишониб бўлмайди».

Қўлида қошиқча билан йигит яна заллар ва йўлаклар бўйлаб айлана бошлабди. Бу гал у ўзини анча эркин ҳис қилибди ва хоналарни

безаб турган ҳамма ноёб ва ғаройиб нарсаларни кўрибди. У боғлар ва қаср теварагидаги тоғларни томоша қилибди, гуллар жозибасидан ва моҳирлик билан жойлаштирилган ҳайкаллари расмлардан баҳра олибди. Донишманднинг ҳузурига қайтиб келиб, кўрган нарсаларининг ҳаммасини бирма-бир санаб берибди.

«Мен сенга қошиқчада олиб бориб, тўкмай қайтариб олиб кел, деб берган ёғ қани?» деб сўрабди Донишманд.

Шу чоғ йигит қарасаки, ёғ тўкилиб кетган экан.

«Сенга беришим мумкин бўлган бирдан-бир маслаҳатим ҳам шу, – дебди донолар доноси. – Бахтнинг калити сирини ана шунда: бу дунёни безаб турган, унга жозоба, ажиблик ато этиб турган нимаики бўлса, ҳаммасини кўра билмоқ керак ва айни чоғда ўша чой қошиқдаги икки томчи ёғни ҳам зинҳор-базинҳор унутмаслик зарур».

Озод ШАРАФИДДИНОВ  
таржимаси

## # Harbiy texnika

(Давоми. Боши ўтган сонда)

Биринчи жаҳон урушининг сўнгги йилларига келиб АҚШда ҳам танклар ишлаб чиқарила бошланган. У ерда асосан французларнинг «Рено» типидagi энгил ва инглизларнинг «Марка-V» ҳамда «Марка-VНI» типидagi оғир танклари (Америка двигателлари билан) ишлаб чиқарилган. Умуман олганда, уруш даврида Англияда – 2 800 та, Францияда – 5 300 та, АҚШда – 1 000 та ва Германияда 10 та танк ишлаб чиқарилган.

Биринчи жаҳон урушида танклар асосан артиллерия зарбасидан кейин бутун қолган ўт очиш нуқталари аввало пулемёт нуқталарини бостириш, муҳандислик тўсиқларини яқсон қилиш, позицион мудофаа линияларини ёриб ўтиш учун қўлланган. Техник номукамаллик, танкларни жанговар қўллаш бўйича пухта назария ва амалиётнинг йўқлиги янги жанговар воситага урушнинг бориши ва унинг яқунловчи босқичига ҳал қилувчи таъсир кўрсатиш имконини бермади. Бироқ дастлабки танклар чекланган жанговар имкониятларга эга бўлганига қарамай, ҳарбий мутахассислар улар тимсолида мудофаани энгиб ўтишнинг самарали ва истиқболли воситасини кўрдилар. Бу машиналарни такомиллаштириш йўллари белгиланди, чунки уруш охирига келиб пиёдалар жанговар тартибидида иштирок этувчи ва ташкилий жиҳатдан уларга бўйсунувчи секин юрадиган танклар тактик муваффақиятни оператив муваффақиятгача ривожлантира олмаслиги маълум бўлган эди.

Шундан келиб чиққан ҳолда, танклар функционал жиҳатдан «пиёдалар» (беовсита пиёдаларни қўллаб-қувватловчи – НТТ танклари) ва «кавалерия» «крейсер» (муваффақиятни ривожлантирувчи) типларга ажратила бошланди. Улар, мос равишда, мудофаани ёриб ўтиш ёки жангдаги муваффақиятни ривожлантириш учун мўлжалланган эди. Конструктив жиҳатдан биринчи типдаги танклар оғир ва шунга мос равишда секин ҳаракатланувчи, аммо янада қудратли қурол билан таъминланган, иккинчи типдагилар эса – энгил ва тезюрак бўлиб, катта юриш захирасига эга эди. Биринчи ва Иккинчи жаҳон урушлари оралиғидаги даврда бажаридиган вазифаси ва конструкциясига кўра бир-биридан фарқланувчи кўплаб танклар яратилган. Турли вазифаларни бажаришга мўлжалланган танклар конструктив жиҳатдан ўта кичик (танкеткалар), энгил, ўрта ва оғир типларга ажратилган, шу билан биргаликда, бундай тоифаларнинг чегаралари танк ишлаб чиқарувчи давлатларда турлича бўлган ва кўп мартаба қайта кўриб чиқилган.

Иккинчи жаҳон уруши даврида инглизларнинг асосий «пиёдалар» танклари қаторида МкI1 «Матильда», МкI11 «Валентайн», МкI1V «Черчилль»; «крейсер» танклари – «Кромвель» ва «Комета» бўлган. АҚШ армияси эса жангларга М3л типидagi энгил танклар ва унча кўп сонли бўлмаган М3с типидagi ўрта танклар билан кирган. 1942 йилда М3 базасида Американинг уруш давридаги асосий танки – М4 «Шерман» яратилган. Аммо барча инглиз ва Америка танклари ўзининг асосий тактик-техник тавсифлари, айниқса қуроллари бўйича немисларнинг Т-V «Пантера» ва Т-VI «Тигр» танкларидан анча ортда қолган эди. Фақат 1944 йил охирига келибгина АҚШда советларнинг Т-34 ва ИС танклари таъсири остида 90 мм.ли тўп билан жиҳозланган, «Пантера» ва «Тигр»ларга қаршилик кўрсатишга қодир бўлган М-26 типидagi оғир танк яратилган.

Германия Иккинчи жаҳон урушига Т-1 ва Т-П типидagi энгил ҳамда Т-Ш ва Т-ГУ типидagi ўрта танклар билан кирган. Бироқ урушнинг бошидаёқ советларнинг Т-34 ва КВ танклари немис машиналаридан кўп жиҳатдан устунлигини кўрсатди.

# ЖАНГОВАР ТАНКЛАР ТАРИХИДАН

1942 йилда немис кўмондонлиги ўрта типдаги танкларни модернизация қилди – ТI11 танкларига 30 мм.ли тўп ўрнига 50 мм.ли тўп ўрнатилди, Т-IV танклари эса қисқа стволли тўп ўрнига узун стволли 75 мм.ли тўпга эга бўлди, шунингдек, зирх қалинлиги оширилди. 1943 йилда немис армияси Т-V «Пантера» ва Т-VI «Тигр» танклари билан таъминланди. Аммо бу танклар ҳам Т-34 га манёврчанлик бўйича, ИС-2 га эса – қурол қудрати бўйича тенг келолмас эди.

Иккинчи жаҳон уруши даврида машҳур Т-34 советларнинг асосий танки эди. Уруш йиллари мобайнида у бир неча марта модернизацияланган. Худди Т-34 сингари 1939 йилда қуроллар таркибига киритилган КВ типидagi оғир танк ҳам муваффақиятли ишланмалар қаторидан жой олган. Бу машиналар урушдан кейинги даврда ҳам танксозлик ривожига жиддий таъсир кўрсатганлиги билан ажралиб туради.

Уруш йиллари мобайнида оғир танкларнинг конструкцияси ва жанговар вазифалари ўзгариб борган. Дастлаб улар асосан ўта мустаҳкам мудофаа линияларини ёриб ўтиш мақсадида яратилган эди. Кейинчалик, оғир танклар (советларнинг ИС-2 ва ИС-3, немисларнинг «Тигр» танклари) қудратли узун стволли тўплар билан жиҳозлангандан сўнг душман танкларига қарши узоқ масофаларда кураш олиб бориш, ўрта танкларни ўт очиш орқали қўллаб-қувватлаш уларнинг асосий вазифасига айланган.

Ана шу мақсадларда бошқа машиналар, шу жумладан, собиқ Иттифокда ИСУ-122 ва ИСУ-152, Германияда эса «Ягдтигр» типидagi танклар яратилган. Бу танкларда айланувчи башня (минора) бўлмаган, аммо уларда каземат типидagi қурол қурилмаси мавжуд эди. Жанговар қўллаш усуллари эса уларни башнясиз танклар деб аташ имконини берар эди.

Нисбатан қисқа ҳарбий давр мобайнида турли мамлакатлар ҳарбий мутахассисларининг танкларнинг қуруқликдаги қўшинларга қаршли қуроллар тизимидаги роли ва ўрни борасидаги қарашларида анча яқинлашув содир бўлди. Уруш охирига бориб танклар 30-йиллардагига нисбатан бир-бирига ўхшаш бўлиб борди.

Урушдан сўнг дунё танксозлигида мазкур жанговар воситаларнинг бир неча янги авлодлари яратилди. Жумладан, «урушдан кейинги биринчи авлод» номи остида одатда жангларда тўпланган жанговар тажриба асосида ишлаб чиқарилган танклар назарда тутилади. Собиқ Иттифокда ишлаб чиқарилган Т-54/55 ва Т-62 типидagi ўрта, Т-10 типидagi оғир

танклар, шунингдек, АҚШнинг М46, М47, М48 (ўрта) ва М103 (оғир), Англиянинг «Центурион» (ўрта) ва «Конкэрор» (оғир) танкларини ана шундай машиналар қаторига қўшиш мумкин. Тилга олиб ўтилган мамлакатлар «икки танк» сиёсати бўйича иш тутган бўлиб, уларнинг танк парклари асосини кичик миқдордаги оғир танклар билан кучайтирилган ўрта типдаги танклар ташкил этган.

# "Mudofaa vaziri kubogi"

# БЎЗАТОВЛИК ЁШЛАР ШИЖОАТИ

Ўзбекистон Республикаси муҳофаа вазирининг жанговар тайёргарлик бўйича ўринбосари полковник Қодиржон Турсунов ҳамда Шимоли-ғарбий ҳарбий округ қўшинлари қўмондони полковник Фарҳоджон Шерматов Бўзатов туманининг Кегейли посёлкаси ёшлари ўртасида «Муҳофаа вазири кубоги» учун миллий кураш ва тош кўтариш спорти бўйича ўтказилган мусобақада иштирок этди.



Вояга етаётган ёш авлодни миллий спорт турларига қизиқтириш, улар ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб этиш, миллий спорт турларини оммалаштириш ҳамда ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказишни таъминлаш мақсадида ўтказилган мусобақа Кегейли посёлкасининг марказий ўйингоҳида катта мусобақага айланди.

Иштирокчиларни қутлаган вазир ўринбосари миллий спортимиз-

нинг ёшлар тарбиясида, уларнинг камолотида тутган ўрнини таъкидлаб, бугун давлатимиз раҳбари томонидан ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтишини ташкил қилиш, уларни спортга кенг жалб қилишга қаратилаётган эътиборини алоҳида эътироф этди.

Тўртта вазн тоифасида 60 нафардан зиёд иштирок этган посёлка ёшлари ўзгача шижоат, матонат ва ҳалол курашни намойиш этди.



Ота-боболаримиздан мерос бўлиб қолган миллий спорт ўйинларининг кўрки айнан мана шундай мусобақаларда намоён бўлишини исботлашди.

Ғолиб ва совриндорлар ташкилотчилар томонидан медаль, фахрий ёрлик ва эсдалик совғалар билан тақдирланди.

Тадбир давомида тумanning ёш ва умидли спортчиларининг ўзбек жанг санъати, шунингдек, Нукус гарнизонидаги ҳарбий қисмининг фахрий қоровул взводининг саф элементлари билан кўргазмали чиқишлари мусобақага байрамона кайфият бағишлади.

Шимоли-ғарбий ҳарбий округ матбуот хизмати

# Ochiq eshiklar kuni

# KUCH VA ISHONCH ULASHAYOTGAN TASHKILOT

Ўзбекистон Республикаси муҳофаасига ко'маклashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati sportning texnik va amaliy turlari markazi tomonidan "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim!" shiori ostida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.



"Vatanparvar" tashkiloti faoliyati, uning keng imkoniyatlari bo'yicha, aholi, xususan, yoshlar tasavvurini oshirish maqsadida tashkil etilgan yoshlar festivali, odatdagidek, davlatimiz madhiyasi sadolari bilan boshlandi.

So'ngra "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi raisi Davronbek Ibragimov tadbiri ochib berar ekan, ushbu tashkilotning maqsad va vazifalari, yoshlar hayotida tutgan o'rnini haqida to'xtalib o'tdi.

Tadbirda tashrif buyurgan Urganch davlat universitetining 100 dan ziyod talabasi va o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari diqqatini tortgan eng qiziq jarayon bu – Xorazm viloyati sportning texnik va amaliy turlari markazining sport seksiyalari ko'rgazmalari bo'ldi. Unda yoshlar karting, sport mototsikllari va velosipedlari, aviamodel va raketamodellar, pnevmatik qurollar ko'rgazmalarini tomosha qilib, sport murabbiylari yordamida ulardan

foydalanib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, "Vatanparvar" tashkilotining duatlon, yozgi biatlon, triatlon, pnevmatik quroldan o'q otish hamda karting singari texnik va amaliy sport turlari bo'yicha o'tkazilgan respublika va Osiyo chempionatlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan tengdoshlari bilan bevosita suhbat qurishib, ushbu tashkilot yoshlar hayotida naqadar muhim o'rin tutishini chuqur his qildilar.

Natijada ushbu tadbir ham, odatdagidek, "Vatanparvar" tashkilotining yosh a'zolari soni yanada oshishiga xizmat qildi.

Tadbirning madaniy qismida vohaning xushovoz xonandalari tomonidan ijro etilgan quvnoq kuy va qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga bayramona va ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

"Vatanparvar" tashkiloti  
matbuot xizmati



# BOLAJOJON

## KARINA VA AYIQ BOLASI



(ertak)

Katta o'rmon  
chetidagi  
uyda Karina  
ismli qiz  
yashar ekan.  
Kunlarning  
birida u o'rmonga  
maymunjon tergani yo'lga tushibdi.

– O'rmon ichkarisiga kirib ketmagin, –  
tayinlabdi onasi. – U yerda yovvoyi hayvonlar  
ko'p, ehtiyot bo'!

– Xo'p bo'ladi, oyijon, faqat o'rmon chetidagi,  
uyimiz yaqinidagi maymunjonlardan teraman.

Karina maymunjonlardan maza qilib yeb,  
qo'shiq aytib, savatchasiga tera boshlabdi. U meva  
terib yurib, o'rmon ichkarisiga kirib qolganini sezmay  
qolibdi. Qulog'iga qandaydir hayvonning ingragan  
tovushi eshilibdi. Qizcha atrofga alanglabdi, hech  
zog' ko'zga tashlanmabdi. Shundagina o'rmon  
ichkarisida turganini sezibdi va orqasiga  
qaytishga shoshilibdi. Biroq qulog'iga yana  
haligi yalinchoq tovush chalinibdi.

U tovush kelgan tomonga asta yura  
boshlabdi. Qarasa, ovchilar kovlab qo'ygan  
chuqurga ayiq bolasi tushib ketgan ekan.

Ayiqcha qancha harakat qilmasin, u yerdan  
chiqa olmayotgandi. Buni ko'rgan Karina unga  
yordam beribdi. O'radan eson-omon chiqib olgan  
mitti maymoqvoy unga "rahmat" degandek asta o'kirib  
qo'yibdi.

Qilgan ishidan xursand bo'lgan qiz maymunjon to'la  
savatchasini ko'targancha ortga qaytibdi. Shunda kutilmaganda  
oldida bahaybat ona ayiq paydo bo'libdi. U qizga qarab  
chunonam o'kiribdiki, Karina turgan joyida qotib qolibdi.

Ayiq endi unga hamla qilmoqchi bo'lganida, ayiq  
bolasi uning yo'lini to'sibdi. Bolasini ko'rgan  
maymoqvoy qizni unutib, bolachasi bilan ovora  
bo'lib qolibdi.

Bundan foydalangan Karina uyi tomon chopibdi.  
U hayvonlar ham yaxshilikni unutmasligini anglabdi.  
Bu haqda ota-onasiga gapirib beribdi va ikkinchi bor  
o'rmon ichiga yolg'iz kirmaslikka so'z beribdi.

Saxila QUDRATOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
241-umumta'lim maktabining  
4-sinf o'quvchisi



## LABIRINT



# Yoz – o'tmoqda soz

# “SAHRO YULDUZLARI” –

## SEVIMLI MASKAN



Yurtimizda start olgan “Yoshlar oyligi” munosabati bilan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan o'quvchi-yoshlarning yozgi ta'til davrida bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishini ta'minlash, ularning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni egallashi bilan birga, sharaflı kasb egalari bo'lmish harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida birga ishtirok etishi, milliy o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi hamda madaniy tadbirlarda ham ma'nau, ham jismonan toblanishini ta'minlash maqsadida Nukus garnizonida “Sahro yulduzlari” nomli harbiy-vatanparvarlik kunduzgi oromgohi o'z faoliyatini boshladi.

“Yoshlar oyligi” doirasida Nukus garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida faoliyatini boshlagan oromgohning birinchi bosqichida harbiy shaharcha hududidagi 44-umumta'lim maktabining 100 ga yaqin yoshlari ishtirok etish istagini bildirdi. Bu yerda o'quvchilar ertalabdan to tushlikkacha darslarda ishtirok etishadi. Tushlikni uyda qilib, bir necha soat dam olgandan so'ng, rejaning madaniy qismidagi tadbirlarda qatnashadi.

Kunduzgi oromgohning ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farhodjon Shermatov yoshlarni harbiy dargohda qutlab, bolalar va yoshlar uchun yaratilayotgan bu kabi sharoitlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus hamda mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tiborning namunasi ekanini e'tirof etdi.

Shundan keyin oromgoh yoshlari uchun ilk mashg'ulot, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik darsi o'tkazildi.



Dars jarayoni davomida harbiy okrug qo'mondoni o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini o'qib-izlanishga, o'z ustida ishlashga, bugun yoshlarimiz uchun berilayotgan ko'plab imkoniyatlardan unumli foydalanishga chorladi. Yoshlarning bugunimiz va kelajagimiz uchun daxldorlik hissi bilan yashashga, kasb-hunar o'rganish va ta'lim olishga da'vat etdi. Dars davomida bolajonlar uchun motivatsion videorolik namoyish etildi.

Bolalarning maroqli dam olishini tashkil etish maqsadida har tong musiqa sadolari ostida aerobika va badantariya mashqlaridan boshlanadi. Shuningdek, bolalar

o'rtasida sog'lom turmush tarziga amal qilishni targ'ib etish maqsadida turli sport musobaqalari ham oromgohning rejasidan joy olgan. Qolaversa, bolalar bu yerdagi sport majmuasida fitnes, yengil atletika, milliy kurash, boks, Sharq yakkakurashlari hamda stol tennisi bilan ham shug'ullanishi nazarda tutilgan.

Kechki dam olish dasturlaridan vatanparvarlik ruhidagi milliy kino tomoshalari, gulxan atrofidagi konsert dasturlari, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri aktyorlari tomonidan sahna ko'rinishlarining namoyishi hamda milliy o'yinlar o'rin olib, bolalarning ijodga, san'atga mehrini oshirishga xizmat qiladi.

### MANTIQNI YOQ

Biz sizga Tomas Geynsboro qalamiga mansub suratni ko'rsatyapmiz. Geynsboro bu suratida asli shotlandiyalik bo'lgan harbiy zobitni tasvirlagan. Bu zobitning ovozi go'zal va nihoyatda chiroyli gapirgan. Zaxiraga chiqqach, Londonda o'ziga mos ish topadi va aholi orasida ma'lum bir nomga ega bo'ladi. Savol: Tomas Geynsboro bu suratida asli shotlandiyalik qaysi londonlikni tasvirlagan?

\*\*\*

**Javob:** Jeyms Kristi. Aukstion ochib, san'at asarlari sotuvini tashkil etib, katta mashhurlikka erishgan.



Bir kuni ertalab bir erkak ishga ketish uchun chiqib, o'z avtomashinasi g'ildiraklaridan birining dami chiqib ketganligini sezib qoldi. Shunga qaramay, u o'sha mashinaga o'tirib, bemaol ishga ketdi, hech bir muammolarsiz ishdan qaytib keldi. U buni qanday uddaladi?

\*\*\*

**Javob:** dami chiqqan g'ildirak zaxiradagisi edi.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: F-0605

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 30 873 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqan boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.